



O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda Ha nocty

2023-yil
7-dekabr
payshanba

№ 49 (4639)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan /

Web-site: www.postda.uz /

E-mail: info@postda.uz

YANGI XONADONLAR – YANGI ORZULAR



So‘nggi yillarda mamlakatimizda Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib xizmat va yashash sharoitlarini yaratish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bosh qomusimiz qabul qilingan kun arafasida IIV Markaziy apparatida xizmat qilayotgan bir guruh xodimlarga poytaxtimizning Yakkasaroy tumanida qurib bitkazilgan yangi xonadonlar topshirildi.

Tadbirda Ichki ishlar vaziri o‘rinbosari, general-mayor Davron Nazarmuhamedov xonadon sohiblarini samimiy qutlab, ularning bunday e‘tibor va g‘amxo‘rlikka javoban, sadoqat va mas‘uliyat bilan xizmat qilishlari lozimligini ta‘kidladi.



TIZIM TARIXINI JAMLAGAN MASHKAN

Har qanday jamiyatning istiqboli, avvalo, uning tarixiga bog‘liq. O‘tmishni kelajak avlodga yetkazishda esa tarixiy muzeylarning alohida o‘rni bor. Ichki ishlar vazirligi tizimida ilk tarixiy muzey 1974-yilda tashkil etilgan bo‘lib, mustaqillik yillarida qayta rekonstruksiya qilingan. 2018-yilda «Ichki ishlar organlari tarixi» muzeyi kengaytirilgan va tarixiy eksponatlar bilan boyitilgan holda foydalanishga topshirilgan edi.

2



MUZEY – MOZIY KO'ZGUSI

TIZIM TARIXINI JAMLAGAN MASHKAN

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)



shakllantirishda muhim vosita ekanligini ta'kidlab

o'tishdi. Mazkur bunyodkorlik ishlarida alohida jonbozlik ko'rsatgan soha fidoi-

Ammo muzey Ichki ishlar vazirligi binosida joylashganligi bois talabalar, olimlar hamda oddiy hamyurtlarimiz, shuningdek, xorijlik mehmonlarning kirib-chiqishida biroz noqulaylik tug'ilayotgan va bu o'z-o'zidan tizim tarixini ommalashtirishga to'siq bo'lib turgandi. Endi ushbu masala uzil-kesil o'z yechimini topdi. Ya'ni, vazirlik rahbariyati tashabbusi bilan «JAR» sport-sog'lomlashtirish kompleksida «Ichki ishlar organlari tarixi muzeyi» butunlay yangi qiyofada barpo etildi. Muzey avvalgisidan deyarli ikki baravar katta, eksponatlar soni esa to'rt mingdan ziyod.

Muzeyning tantanali ochilish marosimida IIV hamda boshqa huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlari,

soha mas'ullari va faxriylar qatnashdi. Tadbirda Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov hamda uning maslahatchisi,

lari, bir guruh faxriylarga samimiy minnatdorlik bildirildi.



general-polkovnik Zokirjon Almatov so'zga chiqib, tizim tarixini o'rganish va saboq chiqarish o'sib kelayotgan yoshlar uchun chinakam hayot maktabi bo'lishini, yurtga sadoqat, mardlik g'oyalari

Shundan so'ng mas'ullar va faxriylar tomonidan ramziy lenta kesilib, mehmonlar muzey eksponatlari bilan tanishishga kirishishdi. «Muzeylar – haqiqatan ham tariximizning yorqin



ko'zgusidir. Hozirgi kunda qaysi bir idoraga bormaylik, tarixini aks ettiruvchi o'z muzeyi bor. Ichki ishlar vazirligi ham bundan mustasno

xizmat kiyimlari, tabel qurollari, maxsus vositalar namunalari, vazirlikning barcha sohaviy xizmatlari tarixi aks ettirilgan alohida burchaklar



emas, albatta. O'ylaymanki, moziy saboqlaridan tegishli xulosalar chiqarishda va yosh avlodni ma'naviy yuksaltirish yo'lidagi amaliy harakatlarda, yangi ochilgan «Ichki ishlar organlari tarixi» muzeyining ham salmoqli o'rni bo'lishiga ishonchim komil. Zero, bu joyni yaratishga ulkan mehnat ketganligi yaqqol sezilib turibdi!» – deydi tarix fanlari doktori, professor, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Qatag'on qurbonlari xotirasi» davlat muzeyi direktori Baxtiyor Hasanov.

Muzeydagi jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, turli yillardagi

tashrif buyuruvchilarda alohida qiziqish uyg'otadi.

Muzeyda, shuningdek, vatan oldidagi xizmat burchini ado etish chog'ida halok bo'lgan mard o'g'lonlar xotirasiga alohida pavilyon ajratilib, ularning hayot yo'llari, qahramonliklari to'liq yoritilgan.

Muzey tashqarisida «Farzandlarini ma'naviyatga yetaklayotgan ichki ishlar organlari xodimi» ramziy haykalining bunyod etilishida esa alohida ma'naviy-ma'rifiy ma'no mujassam, desak, aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz!

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.



BAXTLI VA FAROVON HAYOTIMIZ KAFOLATI



Barchamizga ma’lumki, har qanday davlatning mustahkamligi, uning adolatli va qat’iyatli siyosati ijtimoiy adolatni, fuqarolar haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar asosida quriladi. 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari yanada mustahkam

kafolatlandi. Asosiy qonunimizning 10-bobida inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlari to‘g‘risida bayon qilingan bo‘lsa, 11-bobida fuqarolarning burchlari belgilab qo‘yilgan.

Bugungi kunda barcha sohalar kabi, jazoni ijro etish tizimida ham qonun ustuvorligi yo‘lida juda ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, qabul qilinayotgan qonunlarni amaliyotga tatbiq etish, Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan barcha qoidalarga so‘zsiz bo‘ysunish hamda ularni hurmat qilish borasida targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borilmoqda. Bu esa mahkumlar ongida huquqiy layoqatni shakllantirishda, qonunga hurmat ruhida qayta tarbiyalanishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, Bosh qomusimizni puxta o‘rganish borasida, turli huquqiy profilaktik tadbirlar orqali mahkumlarga qonun ustuvorligi jamiyat rivojida qanchalik muhim rol o‘ynashi haqida tushunchalar berib borilmoqda.

Dilyor HAYDAROV,
kapitan.

Buxoro viloyati.



1992-yili Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida tug‘ilganman. Bosh qomusimiz bilan tengdoshman. Quvonch bilan aytishim kerakki, tinch va osuda, yoshlarga keng imkoniyatlar taqdim etilgan yurtida kamolga yetdim.

Maktab partasiga o‘tirganimizda-yoq ustozlarimiz bizga bu kitob bizni baxtu iqbolga eltuvchi Bosh qomus ekanini ta’kidlashardi. Shunda anglab yetganmanki, mening erkinligim va huquqlarim mazkur huquqiy hujjatimizda mustahkamlab qo‘yilgan.

Konstitutsiyaviy huquqlarimdan foydalanib maktabda o‘qidim, 2014-yilda oliy ma’lumot olish uchun Farg‘ona davlat universitetining psixologiya fakultetiga o‘qishga kirdim. O‘qishni tamomlagach, 2021-yilda ichki ishlar organlarida bolalikdan orzu qilgan kasbimda ish boshladim.

Bir muddat Rishton tumani IIBda inspektor-psixolog va profilaktika inspektori bo‘lib xizmat qildim. Joriy yil boshida esa Farg‘ona viloyati IIB Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash xizmati katta inspektori lavozimiga tayinlanib, hozirda xizmatni shu yerda davom ettiryapman.

Erta-indin nishonlanadigan ayyom – Konstitutsiya kuni men uchun qo‘shaloq bayram bo‘ldi, desam, yanglishmayman. Boisi, bayram arafasida menga navbatdagi – katta leytenant maxsus unvoni berildi.

Kelgusida o‘z ustimda ishlab, huquqiy bilimimni yanada mustahkamlab, ichki ishlar organlarini xalqchil va professional tuzilmaga aylantirishga munosib hissa qo‘shaman.

Doston BOZOROV,
katta leytenant.

Farg‘ona viloyati.



Huquqiy davlatning muhim va ajralmas belgisi qonun ustuvorligi hisoblanadi. Yangilangan Konstitutsiyamizda aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etildi. Bu norma to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qoida bo‘lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta’minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi mustahkamlandi, hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi. Bu qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishi jinoiy ta’qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o‘tkazish, uning sha’ni, qadr-qimmatini kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo‘llanishi oldini olishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga ko‘tarilayotgan bugungi sharoitda ichki ishlar organlari xodimidan yetarli bilimga ega bo‘lish, har qanday murakkab vaziyatda ham to‘g‘ri qaror qabul qilib, zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajarish uchun o‘z ustida tinimsiz ishlash talab etiladi. Shu ma’noda, Bosh qomusimizni o‘rganish, uning so‘zsiz amalga oshirishini ta’minlash ichki ishlar organlari xodimlarining ham birinchi galdagi vazifasidir. Biz nafaqat tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, balki erkin, demokratik, huquqiy davlat barpo etishni o‘zimizning oliy burchimiz deb bilmog‘imiz shart.

Gulnoza RAHMATULLAYEVA,
kapitan.

Namangan viloyati.

Sirdaryo viloyati ichki ishlar organlarida faoliyat ko‘rsatayotgan yoshlar davlatimizning doimiy e’tiborida. Jumladan, joriy yilning o‘zida o‘n besh nafardan ortiq yoshlarga uy-joy olish, ijtimoiy holatini yaxshilash uchun subsidiya va imtiyozli kreditlar ajratildi. Yosh oilalarning farzandlari viloyat IIB huzuridagi MTTga joylashtirilgan. Yoz faslida oromgohlarda dam olishlari tashkil etilmoqda. Yoshlarning oilaviy ahvolini doimiy ravishda o‘rganish maqsadida «xodimbay» ishlash tizimi joriy etilgan. Bu kabi e’tibor ularga ruhiy quvvat berishi, shubhasiz.

Bundan tashqari, yoshlarning madaniy hordiq chiqarishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Joriy yilning o‘zida qariyb ikki yuzdan ortiq yoshlar Samarqand, Toshkent, Buxoro kabi qadimiy va navqiron shaharlarda bo‘lishib, ko‘hna osori atiqalar bilan tanishishdi. Yosh xodimlarning oilalari uchun spektakllar, konsert dasturlari tashkil etilmoqda.

Viloyat IIB yoshlari orasida 21 nafar professional sportchi bor. Ularning 18 nafari jahon va respublika chempionlaridir. Shaxsiy tarkibdagi yoshlarning barchasi sport bilan muntazam shug‘ullanishadi. Bu borada barcha shart-sharoit yaratilgan. Xususan, «Dinamo» sport majmuasi, hududlardagi sport maydonchalari yoshlar ixtiyorida. Turli yo‘nalishlarda sport musobaqalarini tashkil etish odat tusiga kirgan.

Bir so‘z bilan aytganda, bularning barchasi Konstitutsiyamizdagi yoshlar huquqlarini kafolatlashga oid moddalarning amaldagi ijrosiga misol bo‘la oladi.

Shahzod ABDUKARIMOV,
katta leytenant.

Sirdaryo viloyati.



YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

DARAXT BIR JOYDA KO'KARADI



Umrini Vatan xizmatiga bag'ishlagan fidoyi insonlarning hayot yo'li yoshlar uchun ibrat. Ana shunday insonlardan biri IIV huzuridagi JIED To'rtinchi mintaqaviy hudud 2-sonli JIEK boshlig'i, podpolkovnik Jamshid Suvonovdir.

Qarshi shahrida joylashgan 1-sonli gimnaziyani bitirgan Jamshid Qarshi davlat universitetiga hujjat topshirdi. Imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tib, talabalar safidan joy oldi. Oliy bilim dargohida o'qish bilan birga talabalar o'rtasida o'tkaziladigan sport musobaqalarida faol ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdi.

Dorilfununni tugatgan Jamshid Suvonov ichki ishlar organlarida xizmat qilishga ahd qiladi. 2005-yilda IIV Akademiyasi serjantlar tarkibini tayyorlash oliy kurslarini tugatgach, ilk faoliyatini vazirlikning jazoni ijro etish tizimida boshladi. Bu yerda ustozlari polkovniklar Sodiq Islomov va Bahodir Usmonovdan kasb sirlarini o'rgandi. Tirishqoqligi, o'z ustida ishlashi, berilgan topshiriqlarni bekamu ko'st uddalashi tufayli hamkasblari e'tiborini qozondi. Ayni paytda sevimli mashg'uloti – sportning tennis turi bilan shug'ullanishni ham kanda qilmadi.

Tizimda ishlab, o'qib yetarli tajriba va malakaga ega bo'lgan Jamshid Suvonovni 49-jazoni ijro etish koloniyasi intendantlik va

xo'jalik ta'minoti bo'limi boshlig'i lavozimiga tayinlashdi. Kirishimliligi, qiziquvchanligi bois izquvarlik kasbini ham o'zlashtirdi. Undagi o'z ishiga bo'lgan mas'uliyat, mehr va intilish keyingi yillarda 49-JIEKda tezkor vakil sifatida ishlashiga zamin hozirladi. Xullas, muassasa boshlig'igacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan Jamshid Suvonov qanchadan qancha mashaqqatli jarayonlarda ishtirok etdi. U hamisha zimmasidagi vazifani sidqidildan bajarib, rahbariyatning ishonchini oqlab keldi.

IIV huzuridagi JIED To'rtinchi mintaqaviy hudud 2-sonli JIEK boshlig'i lavozimiga tayinlangach, ko'plab xayrli ishlarni amalga oshirdi. Shaxsiy tarkibning xizmat intizomi va qonuniylikka rioya etishiga alohida e'tibor qaratdi. Har bir xodimning oilaviy sharoitini o'rgandi, muammolariga yechim topishda ko'maklashdi.

Koloniyada jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarini tarbiyalashda samarali uslublardan foydalanilyapti. Mahkumlar xulq-atvoriga qarab «tarbiyasi og'ir», «tuzalish yo'liga o'tayotgan»,

«to'liq tuzalgan» kabi toifalarga ajratilib, har qaysi toifa bilan alohida profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, koloniyada mahkumlarni kasb-hunarga o'rgatish maqsadida maktab tashkil etilgan, ustoz-shogird an'anasi yo'lga qo'yilgan. Ayni kezlarda mazkur maktabda 400 nafardan ortiq mahkum hunar o'rganishmoqda. Hunar esa kelgusida ozodlikka chiqqan har bir shaxs uchun ro'zg'or tebratib, tirikchilikni o'tkazishida asqatadi. Natijada ular jinoyatga qo'l urishmaydi. Qolaversa, jamiyatga ham foydasi tegadi.

Bundan tashqari, mahkumlar bilan olib borilayotgan profilaktik tadbirlar jarayonida tuzalish yo'liga o'tgan shaxslar muntazam rag'batlantirib kelinmoqda. O'tgan yili 1010 nafarga yaqin mahkumga tashakkurnoma, qo'shimcha uchrashuv, yaqinlari bilan telefon orqali so'zlashuv imkoniyati berildi.

Bugungi kunda podpolkovnik Jamshid Suvonov boy tajriba va malakasini yoshlarga o'rgatyapti. U hamisha xodimlarga xalq manfaatlariga xizmat qilish,



burchga sadoqat oliy sharaf ekanligini, fuqarolar bilan xushmuomalada bo'lish zarurligini uqtirib keladi.

Ona Vatan ravnaqi, el osoyishtaligi yo'lida qilingan fidokorona xizmat hech qachon e'tibordan chetda qolmagan. Jumladan, Prezidentimizning Farnoniga ko'ra, podpolkovnik Jamshid Suvonov «Jasorat» medali bilan taqdirlandi.

– Kamtarona xizmatlarining yuksak baholangani meni bundan keyin yanada mas'uliyat bilan ishlash-

ga undaydi, – deydi podpolkovnik Jamshid Suvonov.

Qahramonimiz talabchan va tajribali rahbar bo'lish bilan birga namunali oila sohibi ham. Turmush o'rtog'i podpolkovnik Amina Usmonova bilan 3 nafar farzandni voyaga yetkazdi. Katta o'g'li Bahodir ham ota kasbga havasmand. Hozirda u Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida tahsil olmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.
Qashqadaryo viloyati.

Награжденные Родиной



«ОТВЕТСТВЕННЫЙ И НЕУТОМИМЫЙ»

Так отзываются коллеги о рядовом сотруднике 4-го батальона Управления по обеспечению безопасности на метрополитене МВД младшем сержанте Искандере Унгарбаеве.

За его плечами более двух десятилетий службы в органах внутренних дел. Причем только в подразделениях обеспечения безопасности на столичном метро.

– Метрополитен не сводится лишь к подземным и надземным станциям, платформам, эстакадам. Это транспортное предприятие с огромной инфраструктурой, – отмечает И. Унгарбаев. – В настоящее время несущ службу на важнейшем объекте – электродепо Узбекистанской линии. Обеспечиваем безопасность, следование работниками, осуществ-

ляющими профилактическое обслуживание подвижного состава, установленным правилам. В нашем распоряжении современные технические средства, камеры видеонаблюдения. Проводим досмотр на наличие запрещенных предметов.

В органах внутренних дел герой очерка с 2002 года. Тонкости профессии постигал под руководством старших сержантов Илхома Маматкаримова, Кодиржона Солиева, сержанта Бахтиёра Пулатова, которые щедро делились опытом.



Сегодня И. Унгарбаев сам является наставником. Среди его учеников рядовые Фарух Рузиев, Хасан Мустафаев и др.

– Молодым сотрудникам в их становлении необходимо со-

действовать и словом, и делом, – подчеркивает наш собеседник.

В канун празднования Дня независимости младший сержант И. Унгарбаев за многолетнюю образцовую службу, достойный вклад в укрепление общественного порядка был удостоен медали «Содик хизматлари учун».

– Государственная награда – оценка труда всего личного состава подразделения. Она обязывает работать еще с большей самоотдачей, – говорит И. Унгарбаев.

Супруга героя очерка, Хафиза, трудится на не менее ответственной должности – является оператором колл-центра скорой помощи. Вместе воспитывают четверых детей – Зухру, двойняшек Фотиму и Хусана, Нигину, которые очень гордятся папой, ведь он – страж правопорядка.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.



INSON QADRI ULUG'

«OLTINCHI TUYG'U»

jinoyatlarni fosh etishda qo'l kelmoqda

Tohir Zulqaynarov II guruh nogironi bo'lsa-da, Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markaziga shartnoma asosida ishga qabul qilindi. Endigina 22 yoshni qarshi olgan bu yigit zamonaviy texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan, imo-ishoralar tilini biladigan tor doiradagi mutaxassislardan biri.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan, maxsus ilmiy-texnik va intellektual salohiyatga ega shaxslarni mutaxassis yoki texnik ishchi sifatida ekspert-kriminalistika bo'linmalariga shartnoma asosida jalb etish tartibi belgilangan.

Mazkur tartibning 3-bandiga muvofiq, IIVning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ekspert-kriminalistika bo'linmalariga shartnoma asosida mehnatga haq to'lash evaziga mutaxassis yoki texnik ishchilarni jalb etish amaliyoti joriy qilindi. Shunga ko'ra, bugungi kunda sodir etilgan jinoyatchilikni fosh etishda keng foydalanilayotgan videokuzatuv kameralari xotirasiga tushgan ovozsiz so'zlashuvlarni stenogramma qilishga, shuningdek, imo-ishoralar tilini tushunadigan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj mavjudligi sababli, mutaxassis tanlab olish ishlari olib borildi. Ishga kirmoqchi bo'lgan bir nechta fuqaro-

lar orasida T. Zulqaynarov nomzodi o'rnatilgan tartibda o'rganib chiqildi.

O'rganishlar davomida u kar va soqovlar so'zlashadigan imo-ishoralar tili yordamida fikr almashishi va insonning so'zlashuvdagi labning harakatlariga qarab so'zlarni qog'ozga tushira olish salohiyatiga ega ekanligini namoyon qildi.

IIV EKBM xodimlaridan sohaning sir-asrorlarini o'rgangan Tohirjon ayni paytda Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universitetining kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari yo'nalishi bo'yicha sirtidan tahsil olib, bilimlarini yanada boyitmoqda. U IT sohasini chuqur o'rganish barobarida, Microsoft office, Corel Draw, Adobe Photoshop va boshqa mediagrafik dasturlardan foydalanishni yaxshi o'zlashtirgan.

Ekspert-kriminalistika faoliyatida uchuvchisiz uchish quurilmalari (dron) ga, jamoat joylariga o'rnatilgan videokuzatuv kameralari xotirasiga tushgan foto va videoyozuvlar orqali huquqbuzarning shaxsini identifikatsiya qilish hamda imo-ishora orqali so'zlashuvlarni yozma bayon qilishda qahramonimizning salohiyati qo'l kelmoqda.



Tohirjon tabiatan gapira olmaydi va eshitish qobiliyati cheklangan. Lekin unda ko'z orqali ilg'ab olish va sezish hissiyoti juda rivojlangan. Uning o'z ishiga qiziqishi juda baland. Eng asosiysi, qilayotgan ishidan mamnun, bundan faxr tuyg'usini tuyishi yuz-ko'zidan biliniy turadi. Unga biror-bir videoyozuv taqdim etilganida, bir necha yuz, hatto ming kishi orasidan gumonlanuvchini yoki bir-biri bilan gaplashayotgan kimsalarning lab harakatlaridan nima haqda gaplashayotganini aniqlay oladi. Murakkab jinoyatlarni aniqlashda muhim qadam bo'lgan ushbu yangilikni kelgusida IIVning quyidagi tizimlariga ham joriy etish ko'zda tutilgan.

– O'g'lim chaqaloqligida qattiq shamollab, uning asoratlaridan so'ng nogiron bo'lib qolgan edi, – deydi Tohirjonning onasi Oysanam opa. – Keyin uni Toshkentdagi maxsus bolalar bog'chasiga berdik. So'ng internatda ta'lim oldi. Yoshligidan

chizmachilikka, texnikaga va kompyuterga qiziqardi. Endi balog'atga yetgan vaqtda otasi olamdan o'tib qoldi. Bu ham o'g'limga qattiq ta'sir qildi. Ammo hayot davom etarkan. U qiynalsa-da, o'z ustida izlandi. Odatda, imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatda o'z o'rnini topishi biroz qiyin kechadi. Farzandimning hayotda o'z yo'lini topib olgani, sevgan mashg'uloti bilan shug'ullanayotgani, doimiy ish bilan band bo'lganidan mamnunman.

Shuni alohida qayd etish joizki, Ichki ishlar vazirligi tomonidan yaratilgan bunday imkoniyat tufayli nogironligi bo'lgan, ammo alohida iqtidorga ega shaxslarni qo'llab-quvvatlash, ularni jamiyatga moslashtirish hamda ish bilan ta'minlash orqali mamlakatimizda «Inson qadri uchun» degan tamoyil amalda o'z isbotini topmoqda.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

HALOLLIK VA ADOLAT TANTANASI

Bugunning eng og'riqli muammolaridan biri korrupsiya balosidir. Ichki ishlar organlarida ham bu illatga qarshi kurashish borasida Man'aviyat va ma'rifat darslari, faxriylar bilan uchrashuvlar va boshqa tadbirlarda bot-bot gapiriladi.



Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan Toshkent shahar IIBB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati tashabbusi bilan O'zbek davlat drama teatri tomonidan «Hech qachon davlatman dema...» deb nomlangan spektakl premerasi bo'lib o'tdi.

Mazkur spektakl taniqli jurnalist Islom Hamro va Toshkent shahar IIBB MMI va KBTX bosh inspektori, mayor Elbek Normo'minov ssenariysi asosida rejissyor Bahodir Mirmaqsdov tomonidan sahnalashtirilgan. Spektaklda teatrning bir nechta mahoratli aktyorlari bilan bir qatorda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Uchqun Tillayev ham rol ijro etdi. Unda ichki ishlar organlarida korrupsion jinoyatlarning barvaqt oldini olish, uning ayanchli oqibatlarini, halol yashash va xizmat qilishning ahamiyatini ta'sirchan usullarda ko'rsatish orqali xodimlar ongida bu kabi salbiy illatlarga qarshi immunitetni, kasbiga hamda qasamyodiga sodiqlik tuyg'ularini shakllantirish maqsad qilib olingan.

Bosh qahramon – profilaktika inspektori, katta leytenant Temur Aktamovning otasi ichki ishlar organlarida xizmat qilish vaqtida halok bo'lgan. Temurni ota-onasi halol luqma bilan tarbiyalab voyaga yetkazgan. Shuning uchun ham uning fitratida harom luqma va nafs qutqusiga bo'lgan



hirs yo'q. Ammo uning boshlig'i va do'sti – jinoyat qidiruv xizmati xodimi Tolib Jabborov nafsiga qul kimsalardir.

Temur xizmat faoliyati davomida Shabnam ismli ayolning mahallada tashkil etilgan ovqatlanish shoxobchasida qo'lbola spirtli ichimlik sotganligi va tungi klubda psixotrop moddalarni yashirin ravishda tarqatayotganligini aniqlaydi. Ayol esa buni bosdi-bosdi qilish uchun xodimga pora taklif qiladi. Lekin Temur buni qat'iy rad etadi. Shabnam esa bu ishga Temurning boshlig'i va JQB xodimi Tolibni aralashtiradi. Hatto yosh profilaktika inspektori ustidan yuqori tashkilotlarga arz qiladi. Ammo haqiqat qaror topib, halollik va adolat tantana qiladi. Shabnam va uning hamtovoqlari qonun hukmiga topshiriladi.

O'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

★ Наши ветераны

ЖИЗНЬ ПРОЖИТЬ – НЕ ПОЛЕ ПЕРЕЙТИ

Ветераны правоохранительных органов – люди, обладающие огромным жизненным опытом, большим багажом знаний, которыми всегда готовы поделиться с молодежью. В их числе братья подполковник в отставке Виктор Ли и полковник в отставке Валерий Ли.



Чтобы с честью справиться со всеми трудностями, достичь намеченных целей от человека требуется упорство, настойчивость, трудолюбие, умение расставлять приоритеты.

Виктор Ли родился 25 ноября 1947 года в Фергане в семье юристов, в которой уважались дисциплина и распорядок. Эти негласные правила способствовали формированию характера юного Вити. И то, что он с отличием окончил общеобразовательную школу № 10, воспринималось как само собой разумеющееся.

Чтобы узнать вкус заработанного трудом хлеба, выпускник поступил на завод «Азот» рабочим. За два года натер мозоли на руках, набрался опыта, разобрался в своих намерениях. В 1968 году поступил на заочное отделение юридического факультета Ташкентского государственного университета (ныне Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека). Родители одобрили выбор сына, хотя ни о какой поблажке или протекции и речи не могло быть.

В августе 1971 года был принят на должность милиционера-контролера в следственный изолятор № 10 МВД. В 1974 году с отличием окончил университет. В сентябре того же года

молодого специалиста приняли на службу следователем в ОВД города Ферганы.

С 1974 по 1980 год плодотворно работал следователем, старшим следователем ОВД города Ферганы. Расследовал немало дел, в том числе сложные преступления, проявил организаторские способности, что отразилось на продвижении по службе. В 1980-1990 годах он возглавлял следственный отдел ГОВД. С 1991 по 1994 год был старшим следователем Управления борьбы с организованной преступностью МВД Республики Узбекистан, в 1994-1998 годах служил на других ответственных руководящих постах. Опытный специалист Виктор Ли воспитал ряд учеников.



Его многолетний плодотворный труд отмечен по достоинству. Указом Президента Республики Узбекистан от 9 ноября 1995 года был удостоен медали «Жасорат».

Будучи на заслуженном отдыхе ветеран ведет большую общественную работу, в том числе в Ферганском областном корейском культурном центре. Встречи с молодежью, проводимые Советом ветеранов УВД области, проходят с его активным участием.



Валерий Ли родился 15 июля 1949 года в городе Фергане. В 1966 году, окончив общеобразовательную школу с отличием, поступил на работу в Ферганский городской суд на должность секретаря.

С юных лет он проявлял интерес к сфере правоохраны. В 1967 году поступил на заочное отделение юридического факультета Ташкентского государственного университета.

До 1972 года успешно справлялся с обязанностями секретаря областного суда. Затем был назначен помощником прокурора города Ферганы. Отслужив срочную военную службу, с 1974 года до 1978 года занимал должности следователя, старшего следователя прокуратуры города Ферганы. С апреля 1978 до 1983 года был заместителем прокурора города Ферганы, начальником отдела общего надзора областной прокуратуры. С 1983 по 1986 год работал старшим следственным прокурором Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан. В 1986-1988 годах являлся прокурором города Андижана, в 1988-1989 годах продолжил деятельность в качестве прокурора города Ферганы.

В 1989 году был назначен заместителем начальника УВД Ферганской области – начальником следственного управления, где плодотворно прослужил до выхода на заслуженный отдых.

Валерий Дюнбонович обрел огромное уважение среди сотрудников правоохранительных органов. Ученики и бывшие коллеги частые гости в доме ветерана.



Фото из архива.

★ Ко Дню Конституции Республики Узбекистан

Ситора РАХИМОВА, доцент СО при ОВД № 3 УВД ОВД Мирзо-Улугбекского района города Ташкента, лейтенант:

– Конституция – гарант дальнейшего развития и процветания страны. Благодаря Основному закону мы имеем право на труд, медицинское обслуживание, государственную защиту, свободу. Широко отмечаемый в нашей стране День Конституции – хороший повод еще раз вспомнить о содержащихся в ней статьях – незыблемых и справедливых.

Все нормы просты и понятны каждому. К примеру, человек,

его права и свободы являются высшей ценностью, все равны перед законом, достоинство личности охраняется, жилище неприкосновенно, каждому гарантируется судебная защита.

Эти и другие положения Конституции должен знать каждый.

Для меня как для юриста Конституция является главным законом и имеет верховенство по отношению к другим нормативным документам.

В Конституции закреплены наши права и обязанности, Основной закон возвышает достоинство человека, служит упрочению государственности.

Молодое поколение страны уверено в своем будущем. Если будем следовать положениям, прописанным в Конституции, то непременно многого достигнем.

С праздником, с Днем Конституции Республики Узбекистан!



FAXRIYLAR – FAXRIMIZ

«QORAKO'L»NING FIDOYI RAISI

Chimboy tumanidagi «Qorako'l» makon fuqarolar yig'ini joriy yilda jinoyatchilikdan xoli bo'lgani bois «yashil hudud» maqomini olgan. Albatta, bunday natijaga erishishda makon fuqarolar yig'ini raisi Qurbanbay Adilovning hissasi kattadir. U uzoq yillar davomida ichki ishlar organlarida, jumladan, Chimboy tumani IIB voyaga yetmaganlar bilan ishlash guruhi inspektori, uchastka noziri, HOOG katta inspektori, IIB boshlig'ining o'rinbosari lavozimlarida xizmat qilib, 2016-yilda podpolkovnik unvonida pensiyaga chiqqan. Tabiiyki, uning ushbu sohada to'plagan tajribasi bugungi kunda qo'l kelmoqda.

2022-yilda aholi Q. Adilovga ishonch bildirib, uni «Qorako'l» makon fuqarolar yig'ini raisi etib sayladi.

Hozirda fuqarolar yig'inida 1305 xonadon mavjud bo'lib, 6 ming 736 nafar turli millat vakillari ahil-inoq istiqomat qilib kelmoqda. Hududning tinchligini asrash, jinoyatchilikning oldini olish maqsadida katta chorahaga videokuzatuv moslamasi o'rnatilgan. Shuningdek, profilaktika inspektori, katta leytenant Radik Bayjanov bilan birgalikda aholi o'rtasida o'z vaqtida profilaktik tadbirlarning o'tkazilishi o'z samarasini bermoqda.

Joriy yilda makon fuqarolar yig'ini hududidagi ko'chalarga yoritqichlar o'rnatilib, «Ata yurt», «Farhod», «Sh.Musayev», «Aqim-bet baqsi» ko'chalari tekislanib,

shag'al-tosh aralashmasi yotqizildi, – deydi Q. Adilov.

– Mazkur hududda ish boshlaganimga uncha ko'p vaqt bo'lmadi – deya suhbatimizga qo'shiladi profilaktika inspektori, katta leytenant Radik Bayjanov.

– Faoliyatim davomida makon fuqarolar yig'ini raisi Q. Adilovdan doimo maslahatlar olib turaman. Hamjihatlikda ish olib borishimiz tufayli makon jinoyatchilikdan xoli hudud sifatida e'tirof etildi. Ushbu kunga qadar «mahalla beshligi» a'zosi sifatida o'zim tomonidan 29 ta xulosa berilib, ularning deyarli 70 foizi ijobiy yechimini topdi. Albatta, bunda rais Q. Adilovning munosib hissasi bor.

Darhaqiqat, «mahalla beshligi»ning bahamjihat faoliyati sababli aholining qator muammolari hal qilinib kelinmoqda. Misol



Qorako'l MFY raisi Qurbanbay Adilov rasmda (chapdan ikkinchi) fuqarolar bilan suhbat o'tkazmoqda.

tariqasida aytadigan bo'lsak, o'rganishlar davomida hududda yashovchi Genjemurat Jumaniyazov ta'mirlash yo'nalishida oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yimoqchi ekanligini bildirib, asbob-uskuna sotib olish uchun kredit olishda yordam so'raydi. Hokim yordamchisi Q. Qayipnazarov tomonidan unga kredit ajratilishiga yordam ko'rsatildi. Hozirda G'. Jumaniyazov tadbirkorlik faoliyatini boshlagan.

Shuningdek, vaqtincha ishsiz bo'lgan Azamat Qosibayevga kredit hisobidan yuk tashuvchi motosikl olib berildi. U endilikda aholiga xizmat ko'rsatib kel-

moqda. Ziyo'atdin Najimitdinov esa mebel ishlab chiqarish sexi-ga ishga joylashtirildi. U usta yordamchisi sifatida ishlab kelmoqda.

Qurbanbay Adilov turmush o'rtog'i Sarbinaz Yeraliyeva bilan uchta farzandni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Katta o'g'li Nursulton Qoraqalpoq Davlat universitetining yuridik fakultetida tahsil olmoqda. O'rtanchasi Yersultan Taxtakopir tumani prokurori yordamchisi. Kenjasi Ag'atay esa Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpoq'iston Respublikasi.

AYOL VA JAMIYAT

HAMKOR TASHKILOTLAR KO'MAGIDA

Termiz tumanida xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olishga qaratilgan ko'plab profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, katta leytenant Sayyora Muhammadiyevaning sa'y-harakati bilan 17 toifadagi xotin-qizlarning muammolari o'rganilib, hamkor tashkilotlar ko'magida ijobiy hal etildi. Ayollar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida 355 nafar xotin-qiz bilan profilaktik suhbatlar olib borildi.



– Murabbiylarning ko'magi bilan jinoyatga moyilligi bor ayollarning sog'lom turmush tarziga qaytayotgani quvonarli, – deydi Sayyora Muhammadiyeva. – Bu o'tgan yilga nisbatan jinoyatchilikning kamayishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, 32 ta nizoli oilaning muammolari mahalla faollari bilan birgalikda o'rganilib, ijobiy natijalarga erishildi. Bu shuncha oilada osoyishtalik o'rnatildi degani.

Tuman IIB hisobida turuvchi voyaga yetmagan qizlarning xulq-atvori ham nazoratga olingan. Ularning ota-onalari bilan doimiy muloqot qilinmoqda. Hududdagi 32 ta maktabda «Voyaga yetmagan qizlar o'rtasida erta tug'uruqning salbiy

oqibatlari», «Maktabda yurish-turish qoidalari, odob-axloq», «Biz zo'ravonlikka qarshimiz!» mavzularida profilaktik tadbirlar uyushtirilmoqda.

Ayollarni ish bilan ta'minlash bo'yicha ham amaliy ishlarga qo'l urilgani ularning oila va jamiyatda o'z o'rinlarini topishlariga yordam beryapti. Nizoli vaziyatda bo'lgan oilalardagi 7 nafar xotin-qiz ishga joylashtirildi.

Tumanda joriy yilning o'tgan davrida 48 nafar xotin-qizga himoya orderlari berildi. Oilalardagi vaziyat birmuncha yumshab, xonadonlarda tinchlik o'rnatilayotgani kishini quvontiradi.

Feruz RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

SOHAVIY XIZMATLARDA

MAHALLA «YASHIL» TOIFAGA O'TDI

Mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektorlarining jamoatchilik vakillari bilan hamkorligi ijobiy samara bermoqda. Buning isbotini Shovot tumanidagi «Botirlar» mahallasi misolida ham ko'rish mumkin.

Ikki ming nafardan ziyod aholi istiqomat qilayotgan hududda, ayniqsa, oilaviy nizolarning oldini olish, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga amaliy yordam ko'rsatish, ularning muammolariga yechim topish masalalari hamjihatlikda hal qilinmoqda. «Temir daftari», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari»ga kiritilgan fuqarolarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, ularga imtiyozli bank kreditlari ajratilib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi

hisobga olindi. Oilaviy ke-lishmovchilik sabab ajrim yoqasiga kelib qolgan 6 ta oilada sog'lom muhit yaratildi. Shuningdek, mahalla hududida 31 marotaba targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, fuqarolarning turli masalalarga oid 87 ta murojati ijobiy hal etildi. Bu kabi chora-tadbirlar natijasida hududda jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi va mahalla «yashil hudud» toifasiga kiritildi.



uchun amaliy yordam ko'rsatilmoqda. Ular issiqxonalar, tikuv mashinalari, mini-kultivatorlar bilan ta'minlanyapti. Bunda mahalla fuqarolar yig'ini raisi Hamdam Vapoyev, hokim yordamchisi Jamolbek Matchanov, xotin-qizlar faoli O'g'iljon Sharipova, yoshlar yetakchisi Faxriddin Pirov, faollardan Hamro Miskinov va Saparboy Rahimovlarning ham hissasi katta bo'layotir.

– Joriy yilning o'tgan davrida mahalla hududida turli huquqbuzarliklar sodir etgan 142 nafar fuqaroga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi, – deydi profilaktika inspektori, kapitan G'ofurjon Normetov. – Huquqbuzarlik sodir qilishga moyil bo'lgan 7 nafar shaxs profilaktik

Mahallada «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida xonadonlarni qo'riqlash tizimiga ulash, savdo va ishlab chiqarish korxonalariga kuza-tuv kameralari o'rnatish, tungi soqchilar faoliyatini nazorat qilish va ularning hushyorligini oshirish bo'yicha tegishli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, nizoli oilalar, ichkilikbozlikka ruju qo'ygan, jinoyat sodir qilishga moyil bo'lgan shaxslar bilan muntazam ravishda profilaktik suhbatlar o'tkazilyapti. Buning samarasi o'laroq sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinmoqda.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Suratda: kapitan G'ofurjon Normetov mahalla faollari bilan.

«INSON QADRI UCHUN» TAMOYILI ASOSIDA

Kasbi tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi xodimlari tomonidan joriy yilning o'tgan davrida 9586 nafar fuqaroga ID-karta, 6104 nafariga esa xorijga chiqish pasporti rasmiylashtirib berildi. Shuningdek, 16 yoshga to'lgan yoshlarga ID-kartalar ta'lim muassasalarida tantanali ravishda topshirildi.



Bu yil tumanda uzoq yillardan buyon fuqaroligi bo'lmagan shaxs guvohnomasi bilan yashab kelayotgan 12 kishi fuqarolikka qabul qilindi. Ularga yangi namunadagi ID-kartalar rasmiylashtirib berildi. Qolaversa, «Inson qadri uchun» tamoyili asosida faoliyat ko'rsatayotgan bo'linma xodimlari imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan va salomatligi tufayli xizmat binosiga kelolmaydigan fuqarolarning uylariga borib, pasport ma'lumotlarini to'plash ishlarini doimiy tarzda amalga oshirib kelishmoqda.

– Shaxsni tasdiqlovchi hujjatga e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'lib, uni yo'qotish yoki yaroqsiz holga keltirish holatlari uchrayotgani ham sir emas. Joriy yilda 612 nafar fuqaro pasportini yo'qotgani, 67 nafari yaroqsiz holatga keltirgani, 25 nafari esa muddati o'tgan hujjat bilan yurgani ma'lum bo'ldi. Xuddi shuningdek,

704 nafar kishi «Pasport-viza» qoidalariga amal qilmagan. Belgilangan qonun talablariga rioya etmagan ushbu shaxslarga nisbatan ma'muriy tartibda choralar ko'rildi, – deydi bo'linma boshlig'i, kapitan Bekzod Narziyev.

Turli maqsadlarda xorijiy mamlakatlarga ketgan fuqarolardan 90 nafari Vatanga qaytish guvohnomasi bilan kelgan. Ulardan 75 nafari fuqarolik pasportini yo'qotgan, 5 nafari yaroqsiz holatga keltirgan, 4 nafari belgilangan muddatiga e'tibor bermagan. Bu kabi holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida bo'linma xodimlari mehnat jamoalarida, mahallalar va maktablarda fuqarolik hujjatlariga bo'lgan munosabatni shakllantirish maqsadida muntazam targ'ibot ishlarini olib borishmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

ASOSIYSI — QONUN USTUVORLIGI

Toshkent shahar IIBB YHXB YPX brigadasi 2-batalyon 4-safarbarlik guruhi katta inspektori, kapitan Odiljon Shokirjonov Mirobod tumanining «Sayxun» ko'chasida o'z xizmat vazifasini bajarayotgan edi. U yuk avtoullovini to'xtatib, haydovchi Sh.Yu. dan hujjatlarni taqdim etishni so'raganida, avtoullovni boshqarish huquqning beruvchi ishonchnoma yo'qligi ma'lum bo'ladi.

Tez orada uning tanishi M.D. yetib keladi va o'zini haydovchining boshlig'i sifatida tanishtirib, YPX inspektoriga tuzgan bayonnomani bekor qilish evaziga unga 1 million so'm pul taklif etadi.

M.D. jarima maydonida xodimga pul berayotganida qo'lga olinadi va qonun hukmiga topshiriladi.

Fidoi xodim xuddi shunday yana bir huquqbuzarlikni fosh etdi. Mirobod tumanining «Munis» ko'chasida xizmat olib borayotganida «Matiz» rusumli avtoullovni to'xtatib, haydovchi V.J.ning hujjatini ko'zdan kechira boshlaydi. Planshet orqali tekshirganida, bu hujjat haqida ma'lumot yo'qligi ma'lum bo'ladi. Qalbaki hujjat

olib yurganlikda gumon qilingan V.J. Mirobod tumani IIOFMBga olib borib topshiriladi.

– Faoliyatim mobaynida ko'p kuzatganman, – deydi kapitan O. Shokirjonov. – Qoidabuzarlikka yo'l qo'ygan ayrim haydovchilar o'z aybini yashirish uchun turli yo'llarni qidirishadi, ularning bu xatti-harakati qonunga zid ekanligini bot-bot tushuntiraman. Ota-bobolarimiz aytganidek, halollik, poklik bor joyda baraka bo'ladi. Harom luqmaning oqibati yomonligini barchamiz birdek anglab yetsakkina, ko'zlagan ezgu maqsadlarimizga tez va oson erishamiz.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



QO'SHQANOTLAR

XIZMAT BIRLASHTIRGAN OILA

Oila a'zolari bir kasb egasi bo'lsa, bir sohada ishlashi qiyin, degan tushuncha mavjud. Lekin Andijon viloyati IIB xodimlari Jo'rabek Boymirzayev va Barno Mirzayeva bunday fikrda emas. Ular umumiy faoliyat haqiqiy oilaviy baxt kafolati ekani ni isbotlashmoqda.

Jo'rabek va Barno bu kasbga turli yo'llar bilan kelishgan. Hikoyamiz qahramonlarining oilasida huquq-tartibot xodimlari bo'lmagani uchun buni tasodif deyish mumkin. Lekin bu tanlov ularning har ikkisi uchun ham ahamiyatli bo'ldi.

Jo'rabek Boymirzayev ichki ishlar organlarida 23 yildan beri xizmat qiladi. U Andijon sanoat kollejni

tamomlagach, ichki ishlar organlari safiga qabul qilinib, Andijon shahar IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'linmasi xodimi lavozimida faoliyatini boshladi, 2007-yildan buyon viloyat IIB tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi katta mutaxassisi lavozimida xizmat qilmoqda, katta serjant. 2017-yilda «Jasorat» medali bilan taqdirlangan.

Barno Mirzayeva Andijon davlat tillar pedagogika institutini tamomlab, Xo'jaobod tumani IIB huzuridagi qo'riqlash bo'linmasiga qabul qilindi. U Izboskan tumani IIBda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va nazoratsizlikning oldini olish guruhi inspektori, Andijon shahar IIBda xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor lavozimlarida xizmat qilgan. Bugungi kunda mayor B. Mirzayeva Andijon viloyati IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati boshlig'ining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritmoqda. U xizmatdan uzilmagan holda, IIV Akademiyasining sirtqi bo'limini tamomlagan.

Ular bir-birlarini yaqindan tanigach, taqdirlarini bog'lashga qaror qilishdi va 2004-yilda oila qurishdi.

Shubhasiz, osoyishtalik posbonlarining oilasi juda mustahkam bo'ladi. Chunki xizmatdosh ishda qolib ketishlar, xizmat safarlari, navbatchilik va xizmatning boshqa qiyinchiliklarini osongina tushunishi va tushuntirishi mumkin. Shu bois bir sohada ishlash oilani yanada mustahkamlaydi, barcha ehtimoliy tushunmovchiliklarni bartaraf etadi.


– Biz oilada bir-birimizni qo'llab-quvvatlaymiz, tushunamiz, – deydi Barnoxon.

Ular ish joyida ham bir-birini to'ldiradi, oralarida hech qanday raqobat yo'q. Ba'zan u yoki bu masala bo'yicha o'zaro maslahatlashishlari mumkin.

Jo'rabek va Barno to'rt farzandni tarbiyalamoqda. IIV Andijon akademik litseyining 2-bosqichida tahsil olayotgan Farangiz kelajakda ota-onasi kabi ichki ishlar organlari xodimi bo'lishni rejalashtirgan. Robiyaxon 8-sinfda, Muslimaxon 1-sinfda o'qiydi. Kichik Muhammadrizo esa maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi.

Ta'kidlash joizki, Jo'rabek va Barno nafaqat ibratli oila sohiblari, balki xizmatda ham muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARS

KORRUPSIYA – TARAQQIYOTGA JIDDIY TO'SIQ

Korrupsiya har qanday jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayotiga xavf soladigan, mamlakat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan illatdir. U demokratiya va qonun ustuvorligiga putur yetkazadi, inson huquqlarining buzilishiga olib keladi, jinoyatchilikning ko'payishiga sharoit yaratib beradi. Korrupsiya oqibatida milliy iqtisodiyot izdan chiqadi, ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi, hokimiyatga ishonch yo'qoladi, aholi o'rtasida noroziliklar kelib chiqadi.

Bunday jinoyatlarning ko'plab sodir etilishi iqtisodiyotni zaiflashtirib, siyosiy boshqaruvni izdan chiqarishi hamda fuqarolarning davlat tizimi va siyosiy tizimlarga nisbatan ishonchsizligini keltirib chiqarishi mumkin. Shu ma'noda, korrupsiyani davlatga, jamiyatga va xalqqa qarshi jinoyat sifatida ta'riflash maqsadga muvofiqdir.

Insoniyat qadim zamonlardan oq korrupsiyaga qarshi kurashib kelgan. Masalan, poraxo'rluk uchun jazo choralarini qadimgi Babil podshosi – Xammurappi qonunlarida, qadimgi Misr fir'avnlari hujjatlarida ham nazarda tutilgan.

Yuqorida qayd etilganidek, korrupsiya taraqqiyot uchun jiddiy g'ov va afsuski, bu illat tobora kuchayib bormoqda. Agar korrupsiya 2005-yilda dunyo iqtisodiyotiga 80 milliard AQSH dollari miqdorida zarar yetkazgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019-yilda 2,6 trillion AQSH dollariga yetgan. Albatta, mazkur holat korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashishda yanada izchil va sobitqadam bo'lishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ushbu illatga qarshi kurashish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan. Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul Harakat rejasiga qo'shilgan.

2017-yil 3-yanvarda «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi mazkur yo'nalishdagi ishlarning mantiqiy

davomi bo'ldi, deyish mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, bu boradagi davlat siyosatining

«Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati



muhim yo'nalishlari mustahkamlangan ushbu qonun bugungi kunda davlat organlari faoliyatining ochiqdigi va hisobdorligini ta'minlash, davlat organlari, mansabdor shaxslarning o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadlariga xizmat qilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosati samaradorligini oshirish maqsadida 2020-yil 29-iyunda «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga asosan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Agentlik ayni paytda o'z vakolatlari doirasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bilan shug'ullanib kelmoqda.

Joriy yil 27-noyabrda davlatimiz rahbarining

ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon bilan 9 ta ustuvor yo'nalish, 30 ta muhim cho-

Manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

ra-tadbirlardan iborat Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023–2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi tasdiqlandi. Unda korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish, korrupsiyaga oid xabarlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, davlat xaridlarida tovar (ish va xizmatlar) ning narxlarini nazorat qilish mexanizmlarini yaratish, Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida «Korrupsiyasiz soha» loyihasini amalga oshirish, soha bo'yicha milliy ekspertlar jamoasini bosqichma-bosqich shakllantirish, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha

Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Korrupsiya:

- inson huquq va erkinliklari kafolatlarini izdan chiqaradi;
- jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi;
- aholining olib borilayotgan islohotlarga bo'lgan ishonchini yo'qotadi;
- ijtimoiy munosabatlarda adolatsizlikni vujudga keltiradi;
- aholi o'rtasida turli xil noroziliklarni keltirib chiqaradi;
- davlat organlarining barqarorligini izdan chiqaradi va h.k.

2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiyani ishlab chiqish kabi bir qator muhim maqsadlar belgilangan.

Hozirgi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, mamlakat parlamenti – Oliy Majlisning ikkala palatasida ham Korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitalari tashkil etilgan.

Ichki ishlar vazirligi mamlakatimizdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga

oshiruvchi davlat organlaridan biridir. Vazirlik o'z vakolatlari doirasida «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunning 11-moddasiga muvofiq:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;
- korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;
- korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to'g'risidagi axborot-

ni yig'adi hamda tahlil qiladi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

– jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko'radi;

– aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

– korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi va h.k.

Ochiqlik va oshkorlik ichki ishlar organlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishda muhim tamoyil hisoblanadi. Shu bois, boshqa davlat organlarida bo'lgani kabi, qaror qabul qilish jarayonlarining shaffofligini ta'minlash maqsadida elektron axborot tizimi joriy etilib, kadrlar tanlashning ochiq tizimi yaratilgan. Qolaversa, qonun hujjatlariga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslar ichki ishlar organlari faoliyati to'g'risida, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, qonuniy manfaatlariga bevosita daxldor bo'lgan ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish imkoniga ega.

Korrupsiyaga qarshi kurashish – mamlakat kelajagi bilan bevosita bog'liq masala. Shunday ekan, bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilmog'i zarur. Ana shundagina ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Kamol OLLOYOROV
tayyorladi.

8-DEKABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

XALQCHIL DAVLAT, BARQAROR TARAQQIYOT ASOSI

Mamlakatimizning barcha hududlarida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag‘ishlangan bayram tadbirlari qizg‘in ruhda o‘tkazilmoqda. Bayramni munosib kutib olish bo‘yicha tashkiliy-amaliy hamda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni samarali tashkil etishda davlatimiz rahbarining 2023-yil 16-noyabrda gi «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida» gi farmoyishi dasturilamal bo‘lmoqda.



O‘zbekiston Milliy kutubxonasida «Konstitutsiya va inson huquqlariga oid adabiyotlar burchagi» tashkil etilganini alohida ta’kidlash lozim. O‘tgan qisqa davrda xuddi shunday huquqiy ma‘rifat maydonchalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlar Axborot-kutubxona markazlarida ham ochilib, ularga tegishli ilmiy-huquqiy adabiyotlar beg‘araz taqdim etildi. Ishonchimiz komilki, bayram doirasida joylarda «Konstitutsiya — xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!» degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etadigan ma‘rifiy tadbirlarni o‘tkazishda ana shu kitoblar ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur farmoyish bilan tasdiqlangan dasturda tuman va shahar markazlarida, jumladan, Toshkent shahrining Sayilgoh ko‘chasida «Konstitutsiya ko‘chasi»ni tashkil etish belgilangan alohida diqqatga sazovor. Chunki bunday zamonaviy tadbirlar, bir tomondan, yangi tahrirdagi Asosiy Qonunimizning targ‘ibotida xalqchillikni ta‘minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, mamlakatimiz ayni sohada ham dunyoning ilg‘or davlatlari bilan hamqadamligidan dalolat beradi.

Sayyoramizdagi turli mamlakatlarning shaharlari me‘moriy qiyofasida Konstitutsiya mavzusi alohida o‘rin egallaganini kuzatish mumkin. Akademik Akmal Saidovning «O‘zbekis-

ton Konstitutsiyasi tarixi» kitobida qayd etilganidek, Gretsiya va Chili-da, Varshava, Mexiko, Montivideo, Luksemburg, Malaga, shuningdek, Peruning Vankuver shaharlarida Konstitutsiya maydoni bor. Ispaniya, Rossiya, Ukraina, Ruminiya, Polsha mamlakatlarida hamda Buenos-Ayres va Ottava shaharlarida esa Konstitutsiya xiyoboni mavjud.

Qolaversa, Belgiya, Buyuk Britaniya, Chexiya, Fransiya, Ispaniyada, Litva poytaxti – Vilnyus va Qozog‘iston poytaxti – Ostonada ko‘chalar Konstitutsiya nomi bilan atalgan. Bir qancha mamlakatlarda Konstitutsiyaga bag‘ishlab muhtasham me‘moriy obidalar, ulug‘vor monumentlar tiklangan.

Shu ma‘noda, bayram munosabati bilan yurtimizning turli tuman va shahar markazlarida tashkil etiladigan «Konstitutsiya ko‘chasi»da aholiga turli sayyor xizmatlar ko‘rsatish, bepul huquqiy yordam va maslahat berish, ko‘ngilochar va sovrinli tadbirlar tashkil qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bosh Qomusimiz aholining barcha qatlamlariga yetib borishini ta‘minlash maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiya kitobi bir necha tillarda, hatto Brayl alifbosida ham chop etilgani g‘oyat ahamiyatlidir.

Bu haqda so‘z borganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi qarori ijrosi doirasida Alisher Navoiy nomidagi

Muxtasar aytganda, 2023-yil 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini xalqimiz o‘zining yuksak siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va dunyoqarashini namoyon etgan holda qabul qildi. Shunday ekan, yangilangan Asosiy Qonunimiz davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratganini har qaysi zamondoshimiz bevosita bilmog‘i farz va qarzdur.

Otabek FOZILOV,
Inson huquqlari bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi
Milliy markazi bo‘lim boshlig‘i.

NAVBATCHILIK QISMI

TUN-U KUN HUSHYORLIKDA

Navbatchilik qismini ichki ishlar organlarining yuragi, deyishadi. Chindan ham, inson yuragi to‘xtovsiz urib turgani kabi, navbatchilik qismi xodimlari ham tun-u kun xizmatda. Bu yerda bir soniya bo‘lsa-da, ish to‘xtamaydi.

Zangiota tumani IIB Navbatchilik qismiga murojaatlar soni sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Sababi, tuman aholisi soni 169 ming 940 kishini tashkil etmoqda. Bu kichkina raqam emas, albatta. Aholidan bo‘ladigan murojaatlar soni ko‘pligiga ko‘ra Toshkent viloyati bo‘yicha muntazam dastlabki uchtalikdan tushmay keladi. Ayni kunlarda esa sutkalik murojaatlar soni 40–45 tani tashkil qilmoqda. Vaziyatga qarab ba‘zan bu ko‘rsatkich 60 dan ham oshib ketishi mumkin.

– Bizga asosan oilaviy janjallar, o‘zaro kelishmovchiliklar, qarz munosabatlari borasidagi

tortishuvlar, bezorilik holatlari bo‘yicha murojaatlar bo‘lmoqda, – deydi tuman IIB Navbatchilik qismi katta navbatchi-inspektori, mayor Jamshid Po‘latov. – Kam sonli bo‘lsa-da, YTH lar bilan bog‘liq murojaatlar ham uchrab turibdi.

Navbatchilik qismi xodimlari faoliyatini kuzatar ekanmiz, ular ko‘proq tezkorlikka va aniqlikka ahamiyat berishiga guvoh bo‘ldik. Ularning xizmat vazifasini sidqidildan bajarishi bizni quvontirdi. Shunga hamohang tarzda, navbatchilik qismida barcha zurr sharoitlar yaratilgan. Xodimlarning axborot texnologiyalaridan foydalanishi mukammal darajada bo‘lishi kerakligi hisobga olinib, texnik kamchiliklar bartaraf etilgan. Aloqa vositalari ham yetarli darajada. Bu, albatta, xizmat samaradorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



Хорезмская область

По инициативе Янгибазарского РОВД на территории махалли Пахлавон Махмуд создан сад органов внутренних дел площадью 0,6 гектара.



По совету специалистов проведена глубокая вспашка земельного участка, организован полив, приняты меры для повышения плодородия почвы. Затем сотрудники отдела высадили более 700 саженцев плодовых деревьев.

– Предложение о создании сада поддержал хокимият района, – говорит начальник РОВД полковник Илхом Тожимуратов. – На выделенной территории будет зеленая зона. Понимая, что это только половина дела, начатого с благими намерениями, за участком закрепили сотрудников, ответственных за рост и развитие саженцев.

Соб. корр.



Аспект профилактики

ОБРЕТАЯ ПОДДЕРЖКУ

Недавно ОВД Кувинского района в сотрудничестве с профильными организациями провел мероприятие под девизом «Забота о женщине – забота о нации». На него были приглашены женщины, состоящие на учете в органах внутренних дел и самоуправления граждан, в учреждениях здравоохранения. Им была оказана правовая, психологическая и медицинская помощь. Также в рамках мероприятия состоялась ярмарка вакансий. В частности, ООО «Altindag» организовало день открытых дверей для 50 домохозяек и безработных женщин.



Управляющий текстильным предприятием рассказал об условиях, созданных здесь. Общество обеспечивает работников транспор-

том и бесплатным обедом. Имеются комната отдыха, медпункт. Посетительницы получили ответы на интересующие их вопросы.

В ходе тренинга психолог поведал о благотворном влиянии занятости женщин не только на материальное положение семьи, но и оз-

доровление духовно-нравственной среды. Здесь же 20 домохозяек изъявили желание трудоустроиться на предприятие.

– В районе 65 махаллинских сходов граждан. Подобные мероприятия, проводимые совместно с активистками махаллей и представителями социальных учреждений, эффективны в плане предупреждения правонарушений, – говорит старший инспектор ОПП СОБ ОВД Кувинского района капитан Зиёда Умаржонова. – За минувший период года с участием женщин провели 339 встреч, 110 пропагандистских мероприятий. По методу «хонадонбай» изучили

положение дел в семьях, организовали индивидуальные беседы с 800 женщинами. Удалось нормализовать обстановку в 65 семьях, склонных к раздору.

По словам старшего инспектора, в течение трех кварталов обеспечена занятость 954 женщин. В том числе на постоянной основе трудоустроены 483 человека, еще 465 привлечены к общественным работам, столько же желающих прошли обучение профессиям. Проведено более 20 ярмарок вакансий, в ходе которых обрели занятость 150 женщин.

Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корр.
Ферганская область.



«BIZ ZO‘RAVONLIKKA QARSHIMIZ!»

OILA TINCH BO‘LSA, JAMIYAT FAROVON BO‘LADI

Ayni kunlarda Respublikamizning barcha mahallalarida, korxonalar va tashkilotlarida hamda ta‘lim muassasalarida «Biz zo‘ravonlikka qarshimiz!» shiori ostida tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda. Tadbirlarda hokimlik, prokuratura, adliya vakillari ham ishtirok etmoqda.



Ma‘lumki, aksar huquqbuzarlik va salbiy illatlarning tomiri oilada shakllanadi. Raqamlarga asoslanadigan bo‘lsak, shaxs hayoti va sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlarning 40 foizi, har to‘rtta qotillikning bit-tasi, qasddan badanga shikast yetkazishlarning har beshtadan bittasi, haqorat qilish va tuhmatning sakkiz-tadan bittasi aynan oila-turmush sohasida sodir etilmoqda. Prezidentimizning «Oilalarda nosog‘lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o‘rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o‘z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda», degan fikrlari mazkur masalaning qanchalik dolzarb ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Jamiyatda har bir ayol tinch-totuv bo‘lsa, farzandlarini parvarishlash hamda o‘qitish uchun yetarli shart-sharoit va turmushdagi maishiy zo‘ravonliklardan xoli, oilasiga manfaat keltiruvchi ish o‘rni bilan ta‘minlansagina, jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etishdan yiroq bo‘ladi.

Bugungi kunda viloyatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan ayollar sog‘lig‘ini tiklash, bandligini ta‘minlash, hayotda o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashish borasida tizimli ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, xotin-qizlar jinoyatchiligiga barham berish borasida amalga

oshirilayotgan profilaktik tadbirlar davomida ayni shu masalalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Aniqlangan har bir muammoni ijobiy hal etish orqali, jinoyat va huquqbuzarlik holatlari keskin kamayishiga erishilmoqda.

Amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlarda sohaviy xizmatlar bilan birgalikda, sog‘liqni saqlash va boshqa idoralar hisobida turgan xotin-qizlar ahvoli uyma-uy yurish orqali o‘rganilib, muammolari mutasaddi idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda ijobiy hal etilmoqda.

Ta‘kidlash joizki, oilaviy zo‘ravonlikni hech qanday sharoitda oqlab bo‘lmaydi, chunki u insonning asosiy huquqlariga daxl qiladi. Zo‘ravonlik faqat jismoniy kuch ishlatish bilan emas, balki ruhiy, axloqiy, iqtisodiy va maishiy bosim ko‘rinishlarida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Haqoratlash, majburlash, zo‘rlash, iqtisodiy cheklovlar qo‘yish, muntazam ruhiy qiynoqqa solish kabi holatlar ham zo‘ravonlik sifatida baholanadi.

Joriy yilning o‘tgan oylari davomida viloyat hududida tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan 2082 nafar xotin-qizga himoya orderi rasmiylashtirib berildi. Zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarning 1321 nafari eridan, 109 nafari kelinidan, 125 nafari qaynonasi hamda 527 nafari boshqa shaxslardan jabrlanganligi uchun himoya orderi rasmiylashtirilgan. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar va zo‘ravonlik sodir etgan fuqarolar bilan olib borilgan profilaktik ishlar natijasida 874 ta oila yarashtirildi, 996 ta holatda esa nizolar bartaraf etildi. Shuningdek, order talablarini buzgan 216 nafar fuqaroga nisbatan MJTK ning 206-moddasiga asosan, jazo muqarrarligi ta‘minlandi.

Bundan tashqari, erta turmush, erta tug‘uruq, o‘z joniga suiqasd bilan bog‘liq holatlarning oldini olish, ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalardagi ayollar va ularning voyaga yetmagan farzandlari muammolarini hal qilish orqali ajrimlarning oldini olish, oila boshlig‘i uzoq muddatga ketgan oilalardagi ayollar va ularning qarovsiz qolgan farzandlari tarbiyasi bilan shug‘ullanish, ularni chet mamlakatlardan qaytarish va o‘zi yashab kelayotgan hududdagi bo‘sh ish o‘rinlariga ishga joylashtirgan holda bandligini ta‘minlash, ishsiz va kasbga ega bo‘lmagan ayollarni kasbga o‘rgatish borasida keng ko‘lamli tadbirlar, manzilli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xolida TOYIROVA,
Buxoro viloyati IIB HPB MTB inspektori, kapitan.

MA‘LUMOT O‘RNIDA

O‘zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonuni bilan oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun alohida ma‘muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan.

Unga ko‘ra, er yoki xotin o‘z turmush o‘rtog‘ining o‘z huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qiladigan bo‘lsa yoki tahqirlasa, qo‘rqitsa, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘ysa, qilmishning og‘irlik darajasidan kelib chiqib, ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Masalan, shaxs o‘z turmush o‘rtog‘ini haqoratlab, qadr-qimmatini tahqirlasa, 6 mln so‘m jarimaga tortiladi. G‘arazli niyatlar bilan kaltaklab, badaniga og‘ir tan jarohati yetkazsa, 12 yilga ozodlikdan mahrum qilinadi.



XALQARO FORUM

HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Rossiya Federatsiyasi Jazoni ijro etish federal xizmati Akademiyasida xalqaro forum bo'lib o'tdi. Unda Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Belarus va boshqa davlatlardan soha mutaxassisleri, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda yuridik oliy ta'lim muassasalari vakillari, ekspertlar ishtirok etdi.

To'rt kun davom etgan tadbir doirasida dolzarb mavzularga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalar, ko'rgazmalar va davra suhbatlari tashkil qilindi. Ishtirokchilar jazoni ijro etish tizimidagi muammolar va ularning yechimlari, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish, jinoyat-ijroiya tizimida axborot texnologiyalarini keng joriy qilish, tizimni raqamlashtirish kabi muhim masalalarni muhokama qildilar.

Anjumanda IIV Akademiyasi professor-o'qituvchilari O'zbekiston jinoyat-ijroiya tizimidagi o'zgarishlar, xususan, jazo o'tayotgan shaxslarning huquq va erkinliklari kafolatlarini



yanada kuchaytirish, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash holatlarining oldini olish, ilgari sudlanganlarni rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar haqida

ma'ruza qilishdi. Shuningdek, O'zbekiston delegatsiyasi vakillari Rossiya Federatsiyasi Jazoni ijro etish federal xizmati Akademiyasi faoliyati bilan tanishib, ta'lim sohasida hamkorlik va tajriba almashinuvini kengaytirish masalalari yuzasidan fikr almashdilar.

Tadbir doirasida Rossiya Federatsiyasi Jazoni ijro etish federal xizmati

direktori, ichki xizmat general-polkovnigi Arkadiy Gostev va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti boshlig'i, polkovnik Rustam Tursunov ikki taraf o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzoladilar. Hujjatdan ko'zlangan maqsad Rossiya va O'zbekiston penitensiar xizmatlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishdan iborat.

Ishtirokchilar qo'shma rejada seminarlar, forumlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazish, o'zaro manfaatli masalalar bo'yicha ilmiy, o'quv va davriy nashrlar bilan almashishni o'z ichiga olgan aniq tadbirlar nazarda tutilishini ta'kidladilar. Shuningdek, jazoni ijro etish sohasida qonun ijodkorligi, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish va boshqa qator yo'nalishlar bo'yicha o'zaro tajriba almashish rejalashtirilgan.

Shahrizod SHOKIROV,
katta leytenant.

DOLZARB MAVZU

YO'L-TRANSPORT HODISALARI
ULARNING KAMAYISHIGA BARCHAMIZ MAS'ULMIZ

Yo'llarda harakatlanish bilan bog'liq muammolar bugungi kunning eng og'riqli masalasiga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan yo'l-transport hodisalari aks etgan video va foto tasvirlar odamlarda xavotir uyg'otadigan bo'lib qoldi. Ayniqsa, piyodalarning yo'l harakati qoidalariga rioya qilmasligi, buning natijasida og'ir oqibatli avtohalokatlar sodir etilayotgani achinarli hol.

Namangan viloyatida yo'l-transport hodisalari soni yil boshidan buyon o'tgan yilning shu davriga qiyoslanganda 7,8 foizga kamaydi. Lekin bu raqamlar bilan ko'ngilni xotirjam qilib bo'lmaydi. Negaki, aksariyat ko'ngilsizliklar piyodalar bilan bog'liq, ular yo'l harakati qoidalariga amal qilmagani natijasida kelib chiqqan. Aniqrog'i, 387 ta holatda piyodalar ishtirokida yo'l-transport hodisalari qayd etilgan. Eng yomoni, bolalar bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari soni 213 ta bo'lib, bu ko'ngilsizliklar oqibatida 27 nafar bola vafot etgan, 187 nafari jarohatlangan.

...Namangan – Yangiqo'rg'on avtomobil yo'lining 13-kmda – «Bilol» mahallasi hududida 1985-yilda tug'ilgan fuqaro I.U. «Damas» rusumli avtomashinasini boshqarib ketayotgan paytda 4-sinf o'quvchisi O.Ibragimovni urib yuborgan. Bola «bosh miya chayqalishi, chap oyoq suyagi yopiq sinishi» tashxisi bilan shifoxonaga yotqizilgan.

– Ma'lum bo'lishicha, piyoda yo'lning qatnov qismiga birdaniga yugurib chiqishi natijasida yo'l-transport hodisasi ro'y bergan. Haydovchi yil davomida hech qanday qoidabuzarlik yoki yo'l-transport hodisasi sodir etmagan, – deydi voqeani o'rgangan viloyat IIB JXX YHXB boshlig'i o'rinbosari, mayor D. Abdurahimov. – Shu o'rinda ota-onalarga farzandlarini e'tiborsiz qoldirmasliklari, ularga yo'lda harakatlanish qoidalarini doim uqtirib borishlari lozimligini eslatib o'tmoqchimiz.

Maqsadimiz yurtdoshlarimizni bu kabi ko'ngilsiz holatlardan tegishli xulosa chiqarishga undash, ogohlantirishdir. Yo'l harakati qoidalariga amal qilish, o'zimiz va atrofimizdagilarning hayotini saqlash barchamizning vazifamiz ekanini unutmaylik. Shoshmashosharlikka yo'l qo'ymay qoidalarga rioya qilsak, bu kabi ko'ngilsizliklarning oldini olishga o'z hissamizni qo'shgan bo'lar edik.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



Урок духовности и просвещения

КОРРУПЦИЯ – СЕРЬЕЗНОЕ ПРЕПЯТСТВИЕ ПРОГРЕССУ

Коррупционные деяния способны нарушить механизм рыночной конкуренции, привести к развитию организованной преступности, подорвать доверие общества к органам власти. Противодействие этому социальному злу – важнейшая задача.

В Республике Узбекистан основными направлениями государственной политики в области противодействия коррупции являются:

формирование в обществе неприемлемого отношения к любым ее проявлениям;

реализация мер по предупреждению коррупции во всех сферах жизнедеятельности государства и общества;

своевременное выявление, пресечение коррупционных правонарушений, устранение их причин и условий, обеспечение принципа неотвратимости ответственности.

В стране сформированы институционально-правовые основы обеспечения законности и правопорядка, создана эффективная система борьбы с коррупцией. Приняты законы «О противодействии коррупции», «Об административных процедурах», «Об открытости деятельности органов государственной власти и управления», «О государственной гражданской службе». Действуют Национальный совет по противодействию коррупции, соответствующее Агентство. В разрезе министерств и ведомств проводится «диагностика» на предмет устранения коррупционных факторов, на основе которой вносятся подлежащие обязательному рассмотрению представления для принятия неотложных мер.

Важное место в предупреждении коррупции занимает внедрение в органах государственного и хозяйственного управления внутреннего антикоррупционного контроля («комплаенс-контроль»). Цель – развитие комплексной системы раннего выявления и предотвращения коррупционных факторов, что соответствует требованиям международного стандарта ISO 37001:2016.



Сегодня в борьбу с коррупцией в стране вовлечены практически все государственные органы, в том числе Министерство внутренних дел. В соответствии со ст. 11 Закона «О противодействии коррупции» МВД Узбекистана:

участвует в реализации государственных и иных программ в области противодействия коррупции;

осуществляет оперативно-розыскную деятельность, доследственную проверку, дознание и предварительное следствие по преступлениям, связанным с коррупцией;

осуществляет сбор и анализ информации о состоянии и результатах противодействия коррупции, предоставляет информацию соответствующим органам;

рассматривает обращения физических и юридических лиц по фактам коррупции, принимает меры по восстановлению нарушенных прав;

участвует в деятельности по правовой пропаганде, направленной на повышение правового сознания и правовой культуры населения и др.

В целях обеспечения прозрачности процессов принятия решений в государственных органах внедрена электронная информационная система, создана открытая система отбора кадров. Открытость и прозрачность – обязательный принцип в деятельности органов внутренних дел. В соответствии с законодательством физические и юридические лица имеют право в установленном порядке получать достоверную информацию о деятельности ОВД, а также непосредственно затрагивающую права и законные интересы физических и юридических лиц, за исключением информации, доступ к которой ограничен законом.

Согласно ст. 25 Закона «О противодействии коррупции» в республике осуществляются целенаправленные меры по своевременному выявлению и пресечению коррупционных правонарушений, обеспечению принципа неотвратимости ответственности. В их числе: организация эффективной работы органов, непосредственно осуществляющих деятельность по противодействию коррупции; повышение уровня технического обеспечения правоохранительных органов, внедрение в их работу информационно-коммуникационных технологий; обеспечение взаимодействия между государственными органами, осуществляющими деятельность по противодействию коррупции; защита лиц, сообщающих информацию о коррупционных правонарушениях; и др.

Своевременному выявлению коррупционных схем, безусловно, способствует гражданская активность людей. В этом аспекте

Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 декабря 2020 г. имеет особое значение. Документом утверждено Положение о порядке стимулирования лиц, сообщивших о коррупционных правонарушениях или оказавших иным образом содействие в борьбе с коррупцией».

В силу присоединения Узбекистана к Конвенции ООН против коррупции (Нью-Йорк, 31 октября 2003 г.) Законом от 19 ноября 2021 г. сделано уведомление об органах, которые могут оказывать другим государствам-участникам содействие по осуществлению мер по предупреждению коррупции, о сотрудничестве в вопросах выдачи лиц, совершивших коррупционные преступления. В обеспечении уведомления важная роль отводится МВД. Независимо от того, где находится преступник, кара за совершенное коррупционное деяние неотвратима.

Реализация основных направлений государственной политики в области противодействия коррупции позволила достичь положительных результатов. Об этом свидетельствуют исследования неправительственной организации «Transparency International». Согласно Индексу восприятия коррупции (уровень коррупции в государстве, работа, проделанная правительством по борьбе с ней) по состоянию на 2022 год Узбекистан в рейтинге стран мира (180 стран) за пятилетний срок поднялся на 32 пункта.

Борьба с коррупцией как серьезным препятствием на пути реформ продолжается, расширяя масштабы, ибо это залог роста экономики, социальной защищенности граждан, достижения поставленных благородных целей. Свидетельством тому меры, предусмотренные Указом Президента «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы противодействия коррупции и повышению эффективности системы общественного контроля за деятельностью государственных органов и организаций» от 27 ноября 2023 г.

Как подчеркнул глава государства, «люди ждут от нас новых практических дел. Миллионы соотечественников... сегодня смотрят на нас с большими надеждами. Оправдать их доверие, закрепить достижения новыми результатами должно стать не только нашей первоочередной задачей, но и человеческим долгом».

Рафик ШАКУРОВ,
кандидат юридических наук,
доцент.





*U – baxtimiz qomusi,
Adolatdan so‘zlaydi.
Qonunlar majmuasi,
Iqbolimiz ko‘zlaydi.*

*Har modda o‘zgachadir,
Gar bersak ahamiyat.
Biz unga amal qilsak,
Quramiz buyuk davlat.*

*Baxtimizga baxt qo‘shgin,
Quyosh kabi porloq bo‘l.
Kelajakka parvozda
Ko‘rsat doim nurli yo‘l.*

Gulyora ISMOILOVA.

Sirdaryo viloyati.

XIZMATLARDA

ORAMIZDAGI FIDOYILAR

Sohadagi ilk faoliyatini Quyichirchiq tumani IIB JTSG katta inspektori lavozimida boshlagan Umidjon Nurmatov ustoz, podpolkovnik A'zam Utelboyevdan xizmatning sir-asrorlarini qunt bilan o'rganadi. O'z ustida tinimsiz izlanishlar esa unga yanada ko'proq muvaffaqiyat keltiradi. Bekobod kasb-hunar kollejining huquqshunoslik yo'nalishini, keyinchalik IIV Akademiyasining Serjantlar tarkibini tayyorlash oliy kurslarini tamomlagan Umidjon oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lish maqsadida Jizzax davlat pedagogika universitetida sirdan tahsil olmoqda.

Asosiy vazifasi tuman hududidagi ijtimoiy-siyosiy, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishda xavfsizlikni ta'minlash, ko'cha va jamoat joylarida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish hamda patrul-post naryadlarining xizmat faoliyatini tashkil etish bo'lgan fidoyi xodimning o'zi ham ko'plab shogirdlar tarbiyalab, ularga kasbga oid ko'nikmalarni singdirib kelmoqda. Safdorlar Akrom Qoraboyev hamda Islombek Ishbekovlar ana shunday shogirdlar jumlasidandir.

Bundan tashqari, sportni hayoti va kasbining ajralmas qismi deb bilgan U. Nurmatov og'ir atletika bilan muntazam shug'ullanib, 120 kilogramgacha bo'lgan toshlarni bemalol ko'tara oladi. Shu bilan birga, qo'l jangi va yengil atletikani ham kanda qilmaydi.

O'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



YONG'IN XAVFSIZLIGI OYLIGI

QISH BETASHVISH O'TSIN DESANGIZ...

Zamharir qish fasli yilning boshqa fasllariga o'xshamagan o'ziga xosliklari – borliqni oppoq ukparga burkashi, bo'g'otlarni bezagan billur sumalaklari va boshqa betakror go'zalliklari bilan ko'zni quvnatadi...

Biroq uning yana bir o'ziga xos jihati borki, havo sovib borgan sayin isitish moslamalariga ehtiyoj ortib boradi. Shu davrda tabiiy gaz yoki muqobil yoqilg'i mahsulotlaridan foydalanish hajmi keskin oshgani sababli turarjoylar va tunda insonlar qoladigan joylarda ehtiyot choralariga amal qilmaslik holatlari ko'p uchraydi. Isitish muammosi bilan bog'liq ko'ngilsizliklarning tez-tez yuz berib turishi sababli qish fasli yilning eng tashvishli mavsumi hisoblanadi.

Shu bois har yili aynan qish mavsumi arafasida «Yong'in xavfsizligi oyligi» o'tkaziladi. Bunda mavsumni betalafot o'tkazish uchun, eng avvalo, yong'inlar bilan bog'liq vaziyatlarning oldini olish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish talab etiladi. Birinchi galdagi vazifalar sirasiga aholining yong'in xavfsizligi masalalarida bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda ularda shaxsiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, iqtisodiyot



tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari hamda uy-joy fondini yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq holga keltirish kiradi. Yong'inlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot va aholi orasida tushuntirish ishlarini tashkillashtirishga tegishli tashkilotlar hamda keng jamoatchilik safarbar etiladi.

Joriy yilda ham oylik doirasida ishchi guruhlar tomonidan barcha turkumdagi obyektlarda,

ayniqsa, ko'p kvartirali uylar va yakka tartibdagi uy-joylar, bozorlar, yirik savdo majmualari va aholi ko'p to'planadigan boshqa obyektlarda keng qamrovli profilaktik-ogohlantiruv tadbirlari o'tkazilmoqda. Mahallalarda «xonadonbay» tartibida o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlarda aholi o'rtasida yong'inlar, is gazidan zaharlanish yoki havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borilmoqda.

Maktabgacha ta'lim va barcha turdagi ta'lim tashkilotlarida katta guruh tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talabalar bilan yong'inlar, is gazidan zaharlanish va havo-gaz aralashmasi chaqnashining ayanchli oqibatlari, ushbu fojialardan saqlanish choralariga o'rgatish maqsadida turli musobaqa va viktorinalar, mashg'ulotlar va davra suhbatlari o'tkazilmoqda.

Bu tadbirlardan ko'zlangan yagona maqsad – bolajonlarimizga olam-olam quvonch olib keladigan qish faslining betashvish o'tishini ta'minlashdir.

Mamurjon FIRMATOV,
katta serjant.

Toshkent shahri.



«QUYOSHLI VITAMIN» NIMASI BILAN MUHIM?

Qish va bahor mavsumida organizmda kuzatiladigan vitamin tanqisligini bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ko'pchilikni qiziqtiradi. Ayniqsa, «Vitaminlar qirol» deb ta'riflanadigan D vitamini nimasi bilan muhim?

– D vitamini organizmda muhim rol o'ynaydi. Bu nafaqat vitamin, balki inson tanasining ko'plab asosiy funksiyalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan gormon hamdir.

Bugungi kunda dunyo aholisining 50 foizdan ortig'i D vitamini yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Keksalar orasida esa bu ko'rsatkich 80–90 foizga yetadi. Ekspertlarning bir guruhi D vitamini yetishmovchiligini XXI asrning yangi metabolik pandemiyasi deb atashadi.

«Quyoshli vitamin» tanqisligi

D vitamini tanqisligining birlamchi omili ultrabinafsha nurlar ta'sirining yetishmasligi va uzoq vaqt uydan tashqariga chiqmaslikdir. Shuningdek, organizmda ushbu vitaminni



ishlab chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan individual omillar ham mavjud. Bunda tartibsiz ovqatlanish, shu jumladan, oziq moddalarga boy mahsulotlarni yetarli darajada iste'mol qilmaslik ham muhim rol o'ynaydi. Homiladorlik davrida ayol organizmda ham ko'plab oziq moddalar yetishmaydi. Yosh o'tishi bilan organizmdagi D vitaminining darajasi pasayadi. Qolaversa, ichak mikroflorasining buzilishi va bir qator kasalliklar aynan shu vitaminning yetishmasligiga olib keladi.

Nima uchun kerak?

D vitaminining asosiy fiziologik funksiyalari ko'pdan beri ma'lum: qondagi kalsiy miqdorini kerakli darajada ushlab turish, raxitning oldini olish va eng muhimi, suyaklar, tishlar va tirnoqlarni mustahkamlashdan iborat. Ammo so'nggi yillarda ushbu modda haqida ilmiy doira sezilarli darajada kengaydi.

Xalqaro endokrinologiya jamiyati mutaxassislari tomonidan D vitaminining hujayradan tashqaridagi ta'siri bo'yicha o'tkazgan tahlil natijalari uning teri, immun va markaziy asab, yurak-qon tomir tizimlari



hamda reproduktiv salomatlikda a'zolar faoliyatida ishtirok etishini ko'rsatadi.

Vitamin manbalari

Ushbu vitaminining ikkita manbasi mavjud. Ya'ni, inson organizmiga uning 80 foizi ultrabinafsha nurlar ta'sirida teri orqali, 20 foizi oziq-ovqat bilan kiradi.

Oziq-ovqat, asosan, go'sht mahsulotlari, baliq jigari, yog'li baliq va baliq yog'i, tuxum sarig'i, yuqori darajali yog'li sutlar eng muhim mahsulotlar hisoblanadi. Ammo ularni belgilangan miqdordan ko'p iste'mol qilish ortiqcha vaznga sabab bo'lishini yodda saqlash zarur.

Profilaktika va davolash

D vitamini tanqisligining oldini olish uchun nima qilish kerak? Birinchi galda, tahlil uchun qon topshirish va D vitamini bilan ta'minlash darajasini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, agar daraja normal chegaradan yuqori bo'lsa, unda ovqatlanish va quyosh nuriga to'yinishni me'yorlashtirish orqali oson oldini olsa bo'ladi. Agar daraja normadan past bo'lsa, u holda shifokorning ko'rsatmasi bilan dori-darmonlar talab qilinadi.

Botir ERGASHEV,
IIV Markaziy poliklinikasi
bo'linma boshlig'i,
kapitan.

ПРАВИЛЬНОЕ ПИТАНИЕ ЗИМОЙ

Пережить период холодов и защитить организм от вирусов помогут простые советы зимнего питания.

Правило № 1: больше энергии

Чтобы преодолеть все эти напасти, организму требуется больше энергии, поэтому правильное питание зимой предполагает увеличение калорийности пищи. Первым делом больше употребляйте белок – рыбу, мясо и птицу. Растительный белок тоже отлично справляется с этой миссией, поэтому в рацион нужно включать горох, чечевицу и фасоль. Не забывайте про молочные белки – кефир, ряженка, творог, молоко. Обязательно добавляйте к основным блюдам овощи: капусту, тыкву, репу, топинамбур, морковь и картофель. Еще одно важное дополнение – злаки в любых проявлениях, будь то разнообразные каши или обычный хлеб. Медленные углеводы обогащают организм запасами энергии, которых хватает надолго.

Правило № 2: витаминный заряд

Укрепить иммунитет зимой помогут витамины. Бесспорно, что первое место принадлежит витамину С, которого полно в цитрусовых. Полезнее всего

пить свежевыжатые соки, обязательно разбавляя их кипяченой водой в пропорции 1:1, чтобы не перегружать слизистую желудка. Большое количество витамина С содержится в квашеной капусте. Всего 150 г. этого продукта в день хватит, чтобы получить суточную норму. Не менее полезный витамин А, который есть в свежей моркови. Добавляйте к ней сметану или сливки, чтобы ценный элемент усвоился без остатка. Витамин D, необходимый при нехватке солнечного света – в яйцах, молочных продуктах и печени трески.

Правило № 3: сытое разнообразие

Максимально насыщайте рацион разнообразными продуктами. По утрам готовьте каши, в обед – блюда из разных сортов мяса, рыбы и птицы. Ешьте больше овощей, в особенности те, которым мы обычно не уделяем должного внимания. А именно – редис, лук порей, листовую капусту, репу и т.д. Старайтесь чаще употреблять растительное масло, ведь оно богато витамином Е, который защищает кожу от обветривания и обморожения.



Правило № 4: температурный режим

Обязательно включите горячие блюда. Сухомятка и перекусы на бегу – самые опасные враги в зимний период. Обязательно готовьте супы и соусы. Они могут поддерживать оптимальную температуру организма и насытить его питательными веществами.

Правило № 5: водный баланс

Предпочтение стоит отдавать горячим напиткам – черному, зеленому и травяным чаям. Для усиления пользы можно добавить в них корицу, кориандр, кардамон или другие благоухающие специи. Весьма полезны домашние компоты или свежеприготовленные морсы.

Перед применением проконсультируйтесь с врачом.

★ Молодежь — наше будущее

«МЫ ОПРАВДАЕМ ВСЕ ОЖИДАНИЯ!»

В высших образовательных учреждениях МВД России обучается немало молодых ребят из нашей страны. Находясь далеко от Родины, они осваивают профессию, мечтают о том, что бы скорее вернуться домой и приступить к служебным обязанностям. Мы пообщались со слушателями Воронежского института МВД России, задали им вопросы и получили на них ответы.

Дониёр ОТАКУЛОВ, слушатель 5-го курса:

– Я родом из города Самарканда, но детство провел в Сырдарьинской области. Дома очень обрадовались, когда озвучил решение стать стражем правопорядка, продолжить династию в третьем поколении.

К поступлению в институт МВД России готовился тщательно.



Мне хотелось открыть для себя что-то новое, расширить кругозор. Всегда интересовался, как работают наши коллеги, изучал их законодательство, сравнивал с нашим, ведь до поступления в вуз я был действующим сотрудником. По возвращению на Родину буду делиться набранным опытом, знаниями, тем, что может быть полезным для органов внутренних дел Узбекистана.

Однозначно оправдались все мои ожидания от учебы. Институт входит в топ-5 вузов системы МВД России.

Командиры и преподаватели поддерживают нас. На будущее много планов. Прежде всего, успешно закончить вуз, показать в деле полученные знания, внести вклад в борьбу с преступлениями в области кибербезопасности.

Шохинур БЕРДИЕВ, слушатель 4-го курса:

– Родом я из Кызылтепинского района Навоийской области. С детства мечтал стать сотрудником ОВД.

Родители повторяли, что сотрудник органов внутренних дел – почетная и ответственная профессия, этот путь полон испытаний, к которым надо быть готовым.



В 2020 году, после окончания академического лицея МВД, поступил в Воронежский институт МВД России. На данный момент являюсь слушателем радиотехнического факультета по направлению «Компьютерная безопасность». Выбрал данный вуз, чтобы изучить опыт других стран и применить его в нашей системе.

В учебном заведении обучаются ребята не только из Российской Федерации, но и из ряда зарубежных стран.

Цель – стать высококвалифицированным специалистом, офицером, стоять на защите законных интересов моего народа.

Нодиршоҳ РУСТАМШОЕВ, слушатель 2-го курса:

– Я родом из города Термеза Сурхандарьинской области.

Желание надеть форму было с детства. Родители поддержали в выборе профессии, это вселило уверенность в том, что я на правильном пути. Поступил в Сурхандарьинский академический лицей МВД, где под руководством опытных наставников постигал специальные дисциплины, отрасли права.



После успешной сдачи экзаменов был зачислен в Воронежский институт МВД России.

Обучение в данном вузе оправдывает мои ожидания. Здесь все построено так, чтобы слушатели получали не только основательное образование, но и самосовершенствовались. Изучаю

вопросы обеспечения безопасности в киберпространстве. В настоящее время это очень актуально и востребовано. После окончания вуза приложу все свои знания и навыки к тому, чтобы быть образцовым сотрудником органов внутренних дел Узбекистана.

Азиз АМОНОВ, слушатель 2-го курса:

– Я из Касанского района Кашкадарьинской области. С детства вдохновляли люди в форменной одежде. Однажды при выполнении служебных обязанностей сотрудник



ДПС увидел, как маленький я кинулся за мячом, который укатился на проезжую часть дороги. В тот момент в мою сторону на большой скорости двигался автомобиль. Страж правопорядка, не раздумывая ни секунды, ринулся спасать меня, рискуя жизнью. С этого дня у меня появилась мечта стать защитником Родины.

После успешной сдачи вступительных экзаменов был распределен в Воронежский институт МВД России, так как выбранная специальность соответствовала профилю вуза. Кроме учебы курсанты и слушатели имеют

возможность вести активную научную, спортивную и творческую деятельность. Преподаватели всегда готовы помочь и поддержать. И самое главное, дают качественное профессиональное образование.

По окончании института вернусь на Родину и буду служить во благо нашего государства и народа.



УЧИНЧИ СЕКТОРДА НИМА ГАП?

АҲОЛИ МУТАСАДДИЛАРДАН МАМНУН

Навоий вилоятининг Қизилтепа туманида 150 мингдан ортиқ аҳоли истиқомат қилади. Уларнинг кўпчилиги деҳқончилик, чорвачилик билан шуғулланишади. Қизилтепаликлар ишбилармонлик бобида вилоятда биринчилар қаторида туришади.

Туманнинг 3-секторига тадбиркорликни ривожлантиришдан ташқари, аҳолининг муаммоларини ҳал этишга ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хусусан, ёшлар, хотин-қизлар, эҳтиёжманд оилаларни қийнаётган масалаларга ечим топилапти. Бунда, айниқса, хонадонбай ўрганишлар, аҳоли билан бевосита мулоқотлар, сайёр қабуллар муҳим аҳамият касб этмоқда.

«Мустақиллик» маҳалласида яшовчи Акром Файзиев анча йил аввал бахтсиз ҳодиса туфайли ногирон бўлиб қолган. Шу маҳаллада истиқомат қилувчи Мойира Расулова эса туғма ногирон. Маҳалла аҳли учинчи сектор раҳбариятига уларнинг хонадонини таъмирлаб, турмуш шароитини яхшилашни сўраб мурожаат қилган эди. Натижада улар-

нинг ҳар бирига 30 миллион сўмдан ёрдам пули ажратилиб, уйлари таъмирлаб берилди. «Работ» маҳалласилик Махлиё Пўлатовага Ҳиндистонда умуртқа жарроҳлиги муолажаси учун ҳамкор ташкилотлар билан биргаликда 35 миллион сўм ажратилди.

– Фарзандим Абдураҳмонжон туғма кулоқ нуқсон билан туғилган. Шифокорларнинг муолажалари туфайли маълум даражада эшитадиган бўлди. Туман ИИБ бошлиғининг кўмагида унга эшитиш қурилмаси олиб берилди. Шунда атрофимизда яхши инсонлар кўплигига яна бир қарра амин бўлдим, – дейди «Демас» маҳалласи фуқароси Шаҳбоз Жўрақулов.

– Жорий йилда сектор аҳолисининг қарийб 270 нафари турли йўналишлардаги мурожаат



қилган эди. Ушбу мурожаатлар юзасидан ўрганишлар олиб бордик. Ҳокимлик, тиббиёт бирлашмаси ҳамда хайрия жамғармалари билан ҳамкорликда фуқароларни қийнаётган муаммоларни ижобий ҳал этиш, уларнинг турмуш

шароитларини яхшилаш чоралари кўрилди, – дейди туман ИИБ ХПБ ижтимоий профилактика катта инспектори, катта лейтенант Шоҳрух Худойназаров.

Ташвиши ариб, оғирингил бўлаётганлар 3-сектор мутасаддиларидан

мамнун. Халқнинг давлатдан рози бўлиб яшаши эса ҳудуд тинчлигини таъминлашдаги асосий омиллардан биридир.

Махлиё ХОЛОВА,
ўз мухбиримиз.
Навоий вилояти.

■ Самаркандская область

ПРОФЕССИЮ СТОИТ ВЫБИРАТЬ ДУШОЙ

Всегда хочется узнать, как люди выбирают профессию. Кто-то преследует мечту детства, кто-то бежит за деньгами, а у кого-то не было другого выбора. Феруза Эгамова врач по призванию. Она 30 лет посвятила любимому делу – медицине и знает, почему профессию стоит выбирать душой.

Феруза Эгамова выросла в семье предпринимателей. После окончания школы поступила в Ташкентский педиатрический ме-

дицинский институт. В годы учебы встретила свою судьбу и после замужества на последнем курсе вуза перевелась в Самарканд-

ский государственный медицинский институт. В 1992 году поступила в ординатуру. Спустя год была принята на работу в семейную поликлинику № 8 города Самарканда.

– В юности решила сделать выбор в пользу благородной профессии и не ошиблась, – говорит Ф. Эгамова. – Сейчас работаю врачом общей практики поликлиники медицинского отделения УВД Самаркандской области.

В поликлинику ежедневно обращаются более 250 сотрудников органов внутренних дел, прокуратуры, таможни, юстиции и члены их семей, ветераны. В день на прием к нашей героине приходят более 30 пациентов.



На вопрос, что главное в профессии врача, Феруза Эгамова ответила:

– Соучастие, сопереживание, чувство ответственности. Человеку важно осознавать, что он не останется со своей бедой один на один. Врач – рядом.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.



BILASIZMI?

DUNYO KONSTITUTSIYALARI TARIXIDAN

Hozirgi kunda dunyoda 500 ga yaqin amaldagi Konstitutsiya bor. Shulardan salkam 200 tasi mustaqil davlatlar Konstitutsiyalari bo'lsa, 300 tasi federatsiya subyektlarining Konstitutsiyalaridir.



Dunyo Konstitutsiyalarini tarixiy nuqtai nazardan uch avlodga bo'lish mumkin.

Birinchi avlod Konstitutsiyalari – bu guruhga **AQSH Konstitutsiyasi** va Ikkinchi jahon urushiga qadar qabul qilingan boshqa Konstitutsiyalar kiradi.

Ikkinchi avlod Konstitutsiyalari – 1946-yildan to 1990-yilgacha qabul qilingan Konstitutsiyalardan iborat.

Uchinchi avlod Konstitutsiyalari – «Berlin devori» timsolida sotsialistik tizim qulaganidan keyin qabul qilingan Konstitutsiyalar.

Dunyodagi barcha Konstitutsiyalar jahon konstitutsiyaviy xaritasini tashkil etadi. **Yaponiya Konstitutsiyasi** jahon konstitutsiyaviy xaritasida o'ziga xos va mos o'ringa ega.

Yaponiya Konstitutsiyasi – Yaponiyaning tashrif qog'ozidir. Konstitutsiyada Yaponiyaga konstitutsiyaviy ta'rif berilgan. Yaponiya Konstitutsiyasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Avvalo, Yaponiya Konstitutsiyasi o'z tarixiga ega. Yaponiya tarixida ko'p sonli konstitutsiyaviy hujjatlar mavjud bo'lmagan. 300 yildan ko'proq davr davomida Yaponiya G'arb dunyosidan tashqarida, o'z urf-odatlarini va an'alariga muvofiq turmush kechirgan.

Yaponiyada 2 marta Konstitutsiya qabul qilingan. Qolaversa, Yaponiyaga konstitutsiyaviy barqarorlik xos. Buni har ikki Konstitutsiyaga ham bironta o'zgarish kiritilmagani yaqqol tasdiqlaydi.

BUYUKLAR BISOTIDAN

OTAMNING
ESDALIGIDAN

Bir tog'lik otamning oldiga kelib so'radi:

– Men yozib ko'rdim va qattiq ishonch hosil qildim: she'r to'qiy olaman. Ammo zo'r she'r yozish uchun nima qilish kerakligini bilmayapman.

Otam javob berdi:

– Skripkani sozlash bilan ish bitmaydi, unda kuy chala olish kerak. Dalaning borligi yaxshi, unga ishlov berish va don sepa bilish kerak.

– Zo'r she'r yozish uchun nima qilish kerak?

– Nima qilish kerak? Ishla!



Rasul HAMZATOV,
Dog'iston xalq shoiri.

BURGUT BO'LISHNI XAYOL QILGAN
QUSHCHA HAQIDA HIKOYA

Otar tog'dan yaylovga haydayotgan payt. Kutilmaganda osmondan burgut sho'ng'idi, bitta qo'zichoqni changallab ko'targancha ko'zdan yo'qoldi. Buni kichkina qushcha ko'rib turgandi. U o'yladi: nega men burgut ishini takrorlay olmas ekanman, qo'zichoq nima bo'пти, qo'chqorni ham ko'tarib keta olaman. Qushcha balandroq uchdi, qanotini yig'ib pastga sho'ng'idi. Voqea qushchani qo'chqor shoxiga urilishi va o'sha zahoti o'lishi bilan yakunlandi.

– Qachondir pashsha ham toshni yumalatmoqchi bo'lgan, – dedi cho'pon o'lgan qushni qo'lga olar ekan.

O'zini burgutga tenglashtirgan qushchani, oxir-oqibat, pashshaga o'xshatishdi.

MUSHOHADA

HAR NARSADA ME'YOR YAXSHI

Biz internet yordamida kunlik muloqotda bo'lamiz, yangiliklarni o'qiymiz, musiqa eshitamiz, sotamiz va sotib olamiz. Shuning uchun internetsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Lekin tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik hozirgi vaqtda juda xavfli kasallikka aylangani ham bor gap. Bu psixologik buzilish bo'lib, aksariyat hollarda ko'plab muammoli reaksiyalarni kuzatish mumkin. Bunda kishi o'zini nazorat qila olmaydi va ijtimoiy tarmoqlardan chiqolmay qoladi. Ayniqsa, yoshlarning internetga qaram bo'lishi achinarlidir.

Doim internet tarmoqlarida bo'lish xuddi spirtli ichimlik va giyohvandlik vositasiga bo'lgan tobeklikka o'xshaydi. Tobe inson uchun esa virtual hayotning xavfi yanada ortadi. Bu xavf asosan quyidagilarda ko'rinadi:

– **ijtimoiy befarqlik.** U real hayotdan uzoqlashishga olib keladi;

– **xotira va fikrlash qobiliyatini yo'qotish.** U intellektni va fikrlashni «dam oldirib» qo'yadi;

– **yomon uyqu.** Inson miyasi ma'lumotlar bilan to'lib turgan vaqtda dam olishi, tinchlanishi va uxlashi qiyin;

– **ovqatlanishning buzilishi.** Ko'pincha inson ovqatlanish vaqti kelganda ijtimoiy tarmoqlarda onlayn muloqot qilayotgan yoki biron o'yin o'ynayotgan, hatto film ko'rayotgan bo'lsa, o'zini o'sha holatlardan ajratolmay qoladi. Natijada e'tibor ovqatga emas, virtual tarmoqda bo'ladi va kishi nima yeyayotganini his qilmaydi. To'yish hissi yo'qolgani bois to'xtamay, duch kelgan narsani yeydi;

– **kasalliklar paydo bo'lishi.** Doim bir holatda qimirlamay o'tirish inson tanasida turli kasalliklarni hosil



qiladi. Mushaklarning bo'shab qolishi, qomat buzilishi, yurak xurujiga sabab bo'ladi. Monitorga va smartfonga uzluksiz qarash esa ko'zlarning qurishiga, ko'rish qobiliyati pasayishiga olib keladi;

– **oiladagi muammolar.** Oila a'zolarining bir dasturxon atrofida o'tirib taomlanishi, o'zaro suhbat qurishi rishtalarni yanada mustahkamlaydi. Ijtimoiy tarmoqqa qaramlik esa bunga imkon bermaydi va natijada oila a'zolari o'rtasida tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.


Psixologlarning fikricha, ijtimoiy tarmoqlarga, turli o'yinlarga qaramlik kundalik hayotda muloqot qilishda qiynaladigan, o'ziga ishonmaydigan, e'tibordan chetda qolgan insonlarda ko'proq kuzatiladi. Chunki bundaylar internet orqali o'z qiyofalarini yaratishga urinadi. Yana onlayn serfing degan tushuncha ham mavjud bo'lib, bu ma'lumotlarga bog'liqlikdir. Unda foydalanuvchi doimiy ravishda yangi

materiallarni qidiradi va sayt yangilanishlarini tinimsiz kuzatib boradi. Hatto aniq ma'lumotlarni qidirish uchun internetga kirgan odam kutilmaganda begona saytga kirib, maqola va sharhlarni maqsadsiz o'qib, barcha havolalarni bosishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan bunday keraksiz ma'lumotlar oqimi kayfiyat va psixikaga salbiy ta'sir qila boshlaydi va miya haqiqatan ham zarur bo'lgan ma'lumotlarni deyarli sezmaydi.

Qaramlik surunkali bo'lib qolmasligi uchun har narsada me'yorni saqlagan ma'qul. O'zini hurmat qilgan va vaqtini to'g'ri taqsimlagan inson hech qachon ijtimoiy tarmoqlarga tobe bo'lib qolmaydi. Qolaversa, har birimiz «Bu hayotda nima uchun yashayapman?» deb o'zimizga savol berib ko'rishimiz, o'tayotgan vaqtimizni, odatlarimizni tahlil qilishimiz lozim. Shundagina mezon buzilmaydi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.



 Tuman IIBda

HAR BIRINING O'Z O'RNINI BOR

Asaka tumanidagi 76 ta mahallada qariyb 300 ming nafar fuqaro istiqomat qiladi. Ichki ishlar bo'limi shaxsiy tarkibi huquqbuzarliklarning oldini olgan holda, aholining tinch va osoyishta hayoti himoyasi yo'lida xizmat olib bormoqda.



Mayor Xurshidbek Mamajonov va uning yordamchisi, serjant Otabek Nazirov.

– Tumanda xizmat olib boradigan barcha naryadlarni boshqarish, kimni qayerga jo'natishni to'g'ri yo'lga qo'yish juda ahamiyatli, – deydi Asaka tumani IIB Navbatchilik qismining katta inspektor-navbatchisi, mayor Xurshidbek Mamajonov.

– Tumanda 68 ta umumta'lim maktabi, harbiylashtirilgan litsey, «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internati bor, – deydi voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha bo'linma katta inspektori, mayor O'tkirbek Xolmirzayev. – 15 nafar inspektor-psixolog huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha maqsadli ishlar olib borishmoqda. Katta leytenantlar Doniyor Hasanov, Muslimbek Tursunaliyev, leytenantlar – Ulug'bek Mamatqulov,



Tuman IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi tergovchisi, mayor Fayzullo Sulaymonov.



Patrul-post xizmati birinchi tumanlararo otryadi bo'linma komandiri, serjant Ahmadjon Davronov (o'rtada) avtopatrul naryadi, safdorlar – Shahzodbek Zohidov va Davlatbek Abdurahmonov bilan.



Inspektor-psixologlar, leytenantlar – Boburmirza Vahobjonov, Ziyodbek Zulfiyev va Durbek Mo'minov.

Faxriddin Sharipjonov, Ziyodbek Zulfiyev o'z hamkasblariga o'rnak bo'lmoqda. Ularga biriktirilgan hududlarda joriy yilda voyaga yetmaganlar orasida birorta ham huquqbuzarlik sodir etilmagan.

– Joriy yil boshidan buyon Asaka tumani aholisi 27 433 ta

Har kuni 300 nafardan ziyod kishi identifikatsiya kartasi va xorijga chiqish pasportini rasmiylashtirish hamda fuqarolikni olish masalalari bo'yicha bo'limga murojaat qiladi.

– Tergov bo'linmasi tergovchilari tomonidan o'g'rilik, firibgarlik, badanga og'ir shikast yetkazish, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi, yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq jinoyat ishlari bo'yicha tergov harakatlari olib borilmoqda, – deydi bo'linma boshlig'i, podpolkovnik Shavkatbek Hasanov. – Masalan, mayor Fayzullo Sulaymonov yaqinda qarovsiz qoldirilgan avtomashinalardan g'ildiraklarning o'g'irlab ketilishiga doir ish bo'yicha tergovni yakunladi. O'g'rilar tun qorong'isida odamlar kam joyda qoldirib ketilgan



Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi xodimi, safdor Nozanin Salohiddinova.

identifikatsiya kartalari va 22 888 ta xorijga chiqish pasportlarini oldi, – deya suhbatga qo'shildi Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik Sherzodbek Ergashev. – 6 nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi, 1576 nafar chet el fuqarosi vaqtinchalik ro'yxatga qo'yildi.

transportdan g'ildiraklarni yechib olishgan. Jinoyatchilarni avtomashina kuzovlaridan topilgan barmoq izlari orqali aniqlashga erishildi. Ular tumanimizda yashovchi ikki yigit bo'lib chiqdi. Shuningdek, katta tergovchi, mayor Sayidakmal Toshmatov, tergovchilar, katta leytenantlar Sultonmurod Temirov va Boburjon Qosimjonovning fido-korona faoliyati ham e'tirofga loyiq.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

▶ СПОРТНИ СЕВ, СПОРТ БИЛАН ЯША!

МАЙДОНДА БИЛИНАР ЙИГИТНИНГ АЛПИ...

Бугун спортнинг у ёки бу тури билан мунтазам шуғулланиб, юқори марраларни эгаллаётган ёшларимиз сафи тобора кенгайиб бормоқда. Мамлакатимизда, айниқса, спортнинг якка кураш турларидан бири бўлган қўл жанги тобора оммалашмоқда.



Ўзбекистон Республикасининг биринчи Ички ишлар вазири, генерал-майор Йўлдош Бобожонов хотирасига бағишланган қўл жанги бўйича «Ички ишлар вазири кубоги» мусобақасининг ҳудудларда туман-шаҳар ва вилоят босқичлари уюшқоқлик билан ўтказилди. Бунда барча ёш тоифалари бўйича 700 нафардан зиёд иштирокчи ғолиблик учун ўзаро кураш олиб борди.

Жорий йилнинг 1 декабрида пойтахтимизда бўлиб ўтган мусобақанинг финал босқичи аввали-

да Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Пўлат Бобожонов сўзга чиқиб, юртимиз шарафини халқаро мусобақаларда муносиб ҳимоя қилиб келаётган спортчи ходимларни алоҳида эътироф этди, барча иштирокчиларга бўлғуси беллашувларда омад тилади.



Шундан сўнг турли вазн тоифасида майдонга чиққан спортчилар ўз маҳоратларини намойиш этиб, томошабинлар олқишига сазовор бўлдилар. Уларнинг ҳар бир чиқи-

ши халқаро тоифадаги ҳакамлар томонидан холис баҳолаб борилди.

Мурасиз кечган баҳслар якунига кўра, умумжамоа ҳисобида фахрли биринчи ўринни Ички ишлар вазирилик жамоаси қўлга киритди. Шоҳсупанинг иккинчи поғонаси Давлат хавфсизлик хизмати вакилларига насиб этган бўлса, учинчи ўринни Миллий гвардия жамоаси эгаллади.

Ғолиблар ташкилотчилар томонидан диплом, медаллар, рамзий кубок ва қимматбаҳо совғалар билан тақдирланди.

Шерзод АБДУСАМАНОВ,
ўз мухбиримиз.

▶ ЖИСМОНИЙ ВА ЖАНГОВАР ТАЙЁРГАРЛИК

КАСБИЙ МАҲОРАТ ОШИРИЛМОҚДА

Жиззах вилояти ички ишлар органлари ходимлари Шароф Рашидов тумани ҳудудида жойлашган «Динамо» ўқ отиш мажмуасида ўқ отиш машғулотларида маҳоратларини синаб кўришди.




Машғулотлар жараёнида хавфсизлик қоидаларига қатъий амал қилинаётир.

— Айни кунларда барча ҳудудий ички ишлар органлари ва соҳавий хизматлар ходимлари ўқ отиш бўйича оралик назорат синовла-

ридан ўтказилмоқда, — дейди вилоят ИИБ ММИ ва КТБХ жисмоний ва жанговар тайёргарлик бўлими

бошлиғи, подполковник Шерзод Ҳикматуллаев. — Агарда ходим синовда қониқарсиз баҳо олса, февраль-март ойларида бўлиб ўтадиган якуний назорат синовига қўйилмайди. Ўз навбатида, отиш борасида ходим яхши кўрсаткичга эришмаса, унинг хизматга лойиқлиги аттестация асосида текширилади. Мазкур йўналишдаги



машғулотлар мунтазам ўтказилмоқда. Хусусан,

жамоат хавфсизлиги хизмати тизимидаги соҳавий хизматлар шахсий таркиби ҳафтада икки соат вақтла-

ўтган даврида спортнинг кураш, самбо, қўл жанги, енгил атлетика каби турлари бўйича 215 та му-



рини ўқ отиш машқларига ажратишяпти.

Бундан ташқари, ҳафтанинг сешанба ва жума кунлари 24 та машқ тури бўйича жисмоний тайёргарлик машғулотлари ташкил қилинмоқда. Шунингдек, жорий йилнинг

собақа уюштирилган. Бу сингари тадбирлар шахсий таркибнинг жисмоний ва жанговар тайёргарлигини юксалтиришда муҳим аҳамият касб этмоқда, десак адашмаймиз.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
ўз мухбиримиз.
Жиззах вилояти.



История одной песни

«У ПРИРОДЫ НЕТ ПЛОХОЙ ПОГОДЫ...»

Кто из нас не помнит эти строки из песни в исполнении Алисы Фрейндлих в фильме «Служебный роман», которую написал сам режиссер Эльдар Рязанов.

«Служебный роман» появился в 1971 году в виде пьесы и носил название «Сослуживцы». Пьесу поставили в Москве, в театре имени Владимира Маяковского. Она шла с таким успехом, что ее начали ставить и в других театрах. Это побудило Эльдара Рязанова снять на основе пьесы художественный фильм. На съемках картины он долго искал стихи, чтобы они соотносились с внутренним миром героев, с их душевным переломом. Однако найти стихотворение, которое подходило бы по смыслу, не удавалось. В один из дней работы над картиной стихи внезапно зародились у режиссера.

«Я шел по осеннему лесу, – говорит Э. Рязанов.



это наваждение пройдет, но вышло иначе. Неудержимо поползли следующие строки. Одна за другой! Я быстро повернул домой, бормоча строчки, повторяя их, так как боялся, что стихотворение забудется. Войдя в дом,

немедленно перенес все на бумагу. И решил сделать эксперимент...»

Эльдар Рязанов принес стихи в студию и сказал, что они написаны английским поэтом конца XVIII века Вилья-

удобно сказать горькую правду в лицо. Никто из них не заподозрил подвоха – у меня была репутация честного человека. Оператору, ассистентам, актерам, музыкальному редактору текст понравился безоговорочно. Послал стихотворение композитору Андрею Петрову. И, как можно убедительнее, рассказал про Вильяма Блейка. Андрей Петров тоже клюнул на мою ложь. Композитор сочинил музыку. И родилась песня «У природы нет плохой погоды». Не знаю, получилось ли то, что я добивался. Не мне об этом судить. Но уверен, что, во всяком случае, не использовал своего служебного положения...»

Премьера фильма состоялась в Москве в 1977 году. «Служебный роман» сразу стал одним из самых популярных. В первые месяцы проката картину посмотрели 58 миллионов человек, а цитаты ее персонажей сразу превратились в крылатые фразы.



– Душу наполняло бепричинное ощущение счастья. И вдруг, сама собой, в голове возникла строчка: «У природы нет плохой погоды...» Не успел изумиться этому явлению, как следом родилась вторая: «Каждая погода – благодать...» Это было странно. Думал, что

мом Блейком.

«Понимал, что если назову подлинного автора, то есть себя, то могу поставить своих товарищей в неловкое положение, – продолжил режиссер. – Ведь я руководитель съемочной группы, и, может быть, им будет не-

У природы нет плохой погоды –
Каждая погода благодать.
Дождь ли, снег – любое время года
Надо благодарно принимать,

Отзвуки душевной непогоды,
В сердце одиночества печать
И бессонниц горестные всходы
Надо благодарно принимать,
Надо благодарно принимать.

Смерть желаний, годы и невзгоды –
С каждым днем все непосильней кладь,
Что тебе назначено природой
Надо благодарно принимать.

Смену лет, закаты и восходы,
И любви последней благодать,
Как и дату своего ухода
Надо благодарно принимать,
Надо благодарно принимать.

У природы нет плохой погоды,
Ход времен нельзя остановить.
Осень жизни, как и осень года,
Надо, не скорбя, благословить.

Надо, не скорбя, благословить,
Надо, не скорбя, благословить...



MUNAJJIMLAR BASHORATI

(11 - 17-dekabr)



Qo'y. Bu haftada faollikni oshirishga to'g'ri keladi. Chunki bu davrda hamma narsa faqat sizning foydangizga xizmat qiladi. Ko'p ishlarni yaqinlaringiz ko'magida yaxshilab olasiz. Yakshanba qo'shimcha ishlarni bitirib olish uchun qulay kun, bundan unumli foydalaning.



Buzoq. Bu hafta rasmiy ishlar uchun juda qulay palla. Biroq o'zingizni ko'p urintirmang. Do'stlar yordamingizga ehtiyoj sezishadi. Agar sabr-toqatli bo'lib, kirishimli ekanligingizni ko'rsata olsangiz, payshanbaga borib sizni qiynayotgan barcha masalalar o'z yechimini topadi.



Egizaklar. Ishda hal bo'lmayotgan har qanday masalalar bu davrda osonlikcha o'z yechimini topadi, shuningdek, mushkul vazifalarni tez orada yo'lga qo'yishga erishasiz. To'planib qolgan muammolarni bartaraf etishga erishasiz. Shanbada miriqib dam olish uchun qulay fursat.



Qisqichbaqa. Siz uchun hafta moliyaviy masalalar bilan bog'liq uchrashuvlarga boy bo'ladi. Biroq xarid qilishdan oldin «yetti o'lchab, bir kesgan» ma'qul. Hafta oxirida taqdiringizni o'zgartirib yuboruvchi yoki ish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi insonlar bilan kutilmagan tanishuv yuz berishi mumkin.



Arslon. O'z mavqeyingizni mustahkamlab olish uchun juda qulay hafta. Agar ish borasida qat'iyatli bo'lsangiz, omad sizga kulib boqadi. Bu davrda sog'liqqa alohida e'tibor qaratishni ham unutmang. Juma kuni yangi ishlarga qo'l urmagan ma'qul. Yakshanba – yangiliklarga boy bo'ladi.



Parizod. Siz uchun hafta juda omadli kechadi. Ishdagi asosiy e'tiborni xato-kamchilikka yo'l qo'ymaslikka qarating. Ushbu haftada moliyaviy masalalarda qiyinchilik sezmaydiz. Har tomonlama tartibli harakat muammolarning hal etilishini ta'minlaydi.



Tarozi. Kelayotgan haftada ishlar bir maromda kechmaydi. Unutmang, ehtiyotkorlik ko'pgina tashvishlarni chetlab o'tishga yordam beradi. Dam olish kunlari vaqtingiz ziq bo'lishiga qaramay, ko'p narsaga ulgurishingizga to'g'ri keladi.



Chayon. Hafta boshida ishlarni biroz kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Har bir harakatingizni nazorat qiling. Hafta o'rtasida kutilmagan tuhfalalar va yaxshi xabarlar olishingiz mumkin. Dam olish kunlarini shahar tashqarisida o'tkazib, toza havoda hordiq olishni rejalashtiring.



O'qotar. Bu haftada ijodiy ishlar bilan band bo'lasiz. Bir talay tushunmovchilik va ko'ngilsizliklar ortda qoladi. Haftaning birinchi yarmi ikkinchisiga qaraganda xotirjam kechadi. Dam olish kunlari yaqinlaringiz xonadonida mehmon bo'ling.



Tog' echkisi. Haftaning ilk kunlari siz uchun biroz og'irroq kelishi mumkin. Xavotirlanmang, hafta o'rtalariga borib hammasi o'z iziga tushib ketadi. Muhabbat munosabatlari aynan shu haftada ijobiy tus oladi. Hafta oxirida moliyaviy ishlarda omadingiz chopadi.



Qovg'a. Haftani xush kayfiyatda o'tkazmoqchi bo'lsangiz, ko'proq oila davrasida bo'ling. Muhimi, qanday kayfiyatda bo'lishingizdan qat'i nazar og'irroq bo'ling. Xuddi shu narsa sizdan hafta davomida talab qilinadi.



Baliq. Kelayotgan hafta siz o'yagandan ham a'lo darajada kechadi va bu davrda sizdan baxtli odam bo'lmaydi. Yangi tanishuvlar, uchrashuvlar, qiziqarli tadbirlar sizga manzur bo'ladi. Dam olish kunlarini ijodga bag'ishlang.

IIV Birlashgan tahririyati jamoasi tahririyat faxriysi, jurnalist

Sadriddin SHAMSIDDINOVning vafot etganligi munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor etadi.

Toshkent viloyati IIB Faxriylar kengashi iste'fodagi podpolkovnik Yoqub Abdullayevga onasi

Nozikoy hoji ayaning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

МАЪНАВИЯТ МАРШРУТЛАРИ

ХОЖА ДОНИЁР МАҚБАРАСИ

ёхуд
гўзал ахлоқ ва покиза
эътиқод соҳиби ҳақида

Самарқанд заминда дунё аҳлини ҳайратга солиб келаётган тарихий обидалар, муқаддас қадамжолар жуда кўп. Шулардан бири Хожа Дониёр (Дониёл) мақбарасидир. Ушбу мақбара қадимий Афросиёб тепаликларининг шимолий қисмида жойлашган. Бу ерда нафақат мамлакатимизнинг турли нуқталари ва мусулмон ўлкалардан, ҳатто ғарб мамлакатларидан келган зиёратчиларни ҳам учратиш мумкин. Чунки айрим ривоятларга кўра, бу ердаги қабр насроний манбаларда номи тилга олинган Дониёр пайғамбар (Даниил)га тегишлидир. Аммо баъзи уламолар бу фикрни инкор этадилар.

Даниил – Дониёр пайғамбар ҳақида турли диний манбаларда кўпгина маълумотлар сақланиб қолган. Гарчи Қуръони каримда унинг номи зикр этилмаган бўлса-да, бошқа исломий адабиётларда пайғамбарлар қаторида тилга олинди.

Дониёр
исмли
пай-

лар, ҳатто ҳукмдорнинг ҳам эътибори ва эҳтиромини қозонади.

Ривоятларга кўра, у тушларни тўғри таъбир қила олар, қадимий, сирли битикларни ўқиб, унинг мазмунини бехато шарҳлаб берарди. Шу боис подшоҳнинг унга нисбатан эътимони, ҳурмати янада ортади. Бу эса ҳасадгўй ғанимларга ёқмайди ва Дониёрга қарши фитна уюштирадидилар. Подшоҳ

Ўрнига унга тўхмат қилган ғанимларни шерлар олдиға ташлайди. Табиийки, шерлар бу ярамас фитначиларни тилкалаб ташлашади.

Бобил салтанатига форслар томонидан барҳам берилгач, Дониёр пайғамбарни Эронга шох Доро ҳузурига чақиришади. Шундан сўнг узоқ йиллар Доро ва Кир саройида маслаҳатчи бўлиб фаолият кўрсатган. У эра-миздан олдинги 531 йилда вафот этади ва қадимги


раси тортади. Соҳибқиронга ушбу мақбара қайси юртда бўлса, шу юртдан файз-баракат аримаслигини айтишади. Шунда ул зот пайғамбар хокини ўз салтанатининг пойтахти – Самарқандга олиб кетишга аҳд қилади. Айрим маълумотларга кўра, Самарқандга Дониёр пайғамбарнинг фақат ўнг қўли ва ўнг оёғи суякларини олиб келинган.

Яна бир афсонага кўра, пайғамбар хокини отга ортиб олиб келишга пайтда, от ҳозирги мақбара ўрнига етганида, жойида таққа тўхтаб қолган. Отнинг туёқлари остидан эса булоқ отилиб чиққан. Шунда Соҳибқирон пайғамбар хокини айнан шу ерда дафн этишни амр қилган, дейишади. Маҳаллий аҳолининг айтишича, булоқ суви кўп-лаб хасталикларга шифо экан. Бугун бу масканга ташриф буюрган зиёратчилар ушбу шифобахш сувдан ичмай кетишмайди.

Мақбарани зиёрат қилиш учун келганлар қабрнинг ҳаддан ташқари узунлигидан ҳайратга тушадилар. Айна пайтда унинг узунлиги 18 метрни ташкил қилади. Айтишларича, пайғамбар хоки дафн этилганидан сўнг, қабр ўз ўзидан чўзила бошлаган. Кейинчалик ушбу қабр устида унга мослаб мақбара бунёд этилган. Маълумотларга кўра, дунёнинг ҳеч бир нуқтасида бу қадар узун қабр учрамайди.

Бугунги зиёратгоҳ эса XX асрнинг бошларида тикланган. Бу мақбарани мусулмонлар билан бир қаторда, насронийлар ва яҳудийлар ҳам зиёрат қилгани келишади.

Гулноза ТУРФУНБОЕВА,
тайёрлади.



ғамбар ҳазрати Сулаймон (а.с.) авлодларидан бўлиб, эра-миздан аввалги 603 йилда туғилган. Эра-миздан аввалги 586 йилда Бобил ҳукмдори Навухудносор ҳозирги Қуддус ҳудудини забт этиб, кўп одамлар қатори 16 ёшли Дониёрни ҳам Бобилга олиб кетади. Ҳазрати Дониёр ўзининг гўзал ахлоқи ва покиза эътиқоди билан бобиллик-

фитначиларнинг иғволарига учиб, Дониёрни оч шерлар ётган чоғга ташлашни буюради.

Яратганнинг қудрати билан шерлар уни ғажиб ташлаш ўрнига, оёғига бош қўйиб, итоат этадилар. Буни кўрган подшоҳ Дониёрнинг айбсизлигига, парвардигорнинг содиқ қулларидан бири эканига ишонади ва уни чоҳдан чиқариб олади.

Суза – ҳозирги Эрон ҳудудидаги Шустар (Шуш) шаҳрида дафн этилади.

Хўш, Дониёр пайғамбар жасади қандай қилиб Самарқандга келиб қолган? Маълумки, Амир Темур 1397–1404 йилларда Кичик Осиёга юриш қилади ва Шустар шаҳрини ўн саккиз кун қамал қилади. Қамал пайтида саркарданинг эътиборини пайғамбар мақба-

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchi –

Abror POYONOV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxonaning manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №3693.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50436 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.

www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postdauz